7. Har xil yurish, yugurish, sakrash. Guruhni to'xtatish.

### Mavzu: GIMNASTIKA ATAMALARI

Atamalar bo'yicha tasvirlab, quyidagi kombinatsiyalarni ko'rsatish:

#### 1. Gimnastika devori.

Osilish – oyoqlarni oldinga bukib osilish – burchak bo'lib osilish – burchak bo'lib oyoqlarni kerib osilish – burchak bo'lib osilish – osilish – osilib kerishish – o'ngga burilib oyoqlarni almashtirib qo'nish – gimnastika devoriga yuz bilan osilib turish – cho'qqayib osilish – osilib kerishish – tik turib osilish – gimnastika devoriga yuz bilan osilish – oyoqlarni orqaga bukib osilish – gimnastika devoriga yuz bilan osilish.

#### 2. Baland-past qo'shpoya.

Yuqorigi poyada osilish – burchak ushlab osilish – bukilib osilib turish – pastki poyada cho'qqayib o'tirib osilish – pastki poyada kerishib osilib yotish – o'ng qo'l bilan yuqorigi poyadan ushlab, o'ng sonda o'tirib, chap qo'l yonda – pastki poyada burchak ushlab o'tirish – o'ng sonda o'tirish – o'ngga burilib yuqorigi poyadan ushlab, yuqorigi poyaga yuz bilan osilib yotish – pastki poyadan navbatma-navbat ushlab tayanish – sakrab tushib qo'nish.

#### 3. Parallel qo'shpoya.

Tayanish – tayanib burchak ushslash – oyoqlarni kerib orqaga tayanib o'tirish – oyoqlarni kerib orqaga tayanib yotish – oyoqlarni kerib bilaklarga tayanib o'tirish – bilaklarga tayanish – sakrab tushib qo'nish.

#### 4. Erkin mashqlar.

Asosiy turish – cho'qqayib tayanib o'tirish – tayanib yotish – sonlarda tayanib yotish – o'ng tizzada tik turib chap oyoq orqada – chap oyoqni birlash-tirib, o'ngga burilib, chap oyoq bilan tayanib yotish, o'ng qo'l yonda – orqaga tayanib yotish – orqaga tayanib o'tirish – orqaga tayanib burchak ushlab o'tirish – orqaga tayanib oyoqlarni bukib o'tirib ortga burilish – bukilib tayanib turish – asosiy turish.

### **Mavzu: URM va uni o'tish uslubiyoti**

Bo'lib o'tish usulida 4 URMni tuzish va o'tish (har biri 4 hisobda) tasavvurni yaratuvchi 4 xil usulni qo'llash va bajarayotganda hisob olib borish hamda uslubiy ko'rsatma berish.

*Variant I:* tortilishga, mushaklarning katta guruhiga, qo'llarga, gavdaga.

*Variant II:* gavda mushaklariga, barcha mushak guruhlariga, qorin pressiga, orqa mushakka.

*Variant III:* barcha mushak guruhlariga, cho'ziluvchanlikka, sultanish va sakrashga.

*Variant IV:* mushaklarning katta guruhiga, qo'l mushaklariga, tana, barcha mushak guruhlariga.

*Variant V:* qo'l, tana mushaklariga, barcha mushak guruhlariga, cho'ziluvchanlikka.

### **Mavzu: Amaliy mashqlar**

Amaliy gimnastika vositalaridan foydalanim, o'yin va estafetalar reja konsepti mazmunini ishlab chiqish va yozish.

*Variant I:* Amaliy mashqlar bilan estafeta: yugurish, tirmashib chiqish, to'pni uloqtirish-ilish.

*Variant II:* Amaliy mashqlar bilan o'yinlar: sakrash, muvozanat mashqlari, yugurish.

*Variant III:* Amaliy mashqlar bilan estafetalar: sakrash, to'siqlardan oshib o'tish va yuk tashish.

*Variant IV:* Amaliy mashqlar bilan o'yinlar: yugurish, to'pni uloqtirish, yuk tashish.

*Variant V:* Sudralib o'tish, sakrash, yugurish bilan o'yinlar.

*Eslatma:* estafeta kamida 4 ta bosqichdan iborat bo'lishi kerak, o'yin esa syujetda bo'lishi kerak.

## II BOSQICH TALABALARI UCHUN NAZORAT ISHI

1-nazorat ishi.

Mavzu: "Gimnastika atamalari".

1. Grafik mashqni 4 hisobda yozing

Variant I.

a) oyoq mushaklari uchun

D.h. -



1 = ..... 2 = ..... 3 = ..... 4 = .....

b) orqa mushaklar uchun


D.h. -



1 = ..... 2 = ..... 3 = ..... 4 = .....

2. To'g'ri javobni toping.

Tayanib cho'qqayish - hu:



b)



c)



Kerishib egilish - hu:



b)



c)



3. Atama bo'yicha to'g'ri nomlanishini toping.



a) orqa bilan yotish; b) tayanib o'tirish; c) orqaga tayanib yotish.

1. 4 hisobda grafik mashq yozing.  
a) oyoq mushaklari uchun:

D.h. -



1 - ..... 2 - ..... 3 - ..... 4 - .....

b) orqa mushaklar uchun:

D.h. -



1 - ..... 2 - ..... 3 - ..... 4 - .....

2. To'g'ri javobni toping.  
Tayanib yotish - bu:



Tayanib bukilib turish - bu: i)



3. Atama bo'yicha to'g'ri nomlanishini toping.




a) kerishib egilish; b) chio'qqayish; c) orqaga egilish.

**2-nazorat ishi.**  
**Mavzu “URM va uni o'tish uslubiyoti”**

**I variant.**

1. Bo'lib o'tish usulida mashqni boshlash uchun qanday buyruq beriladi?



2. Mazkur mashq (asosan) qaysi mushak guruhiga qaratilganligini aniqlang.


3. Orqa mushak uchun 2 hisobli mashq tuzing va atamalar bilan yozing.

4. URMni bo'lib o'tish usulida foydalaniladigan yuklamalarni tartibga solish usullarini sanab o'ting.

**II variant.**

1. URMni bo'lib o'tish usulida mashqni yakunlash uchun qanday buyruq beriladi?

2. Mazkur mashq (asosan) qaysi mushak guruhiga qaratilganligini aniqlang.



3. Deltasimon mushak uchun 2 hisobda mashq tuzing va atamalarda yozing.

4. URM to'g'risida tasavvur yaratuvchi qanday usullar mavjud?


**III variant.**

1. URMni uzluksiz usulda bajarishni boshlash uchun qanday buyruq beriladi?

2. Qorinning kindikdan pastki qismi mushaklari uchun 2 hisobda mashq tuzing.

3. URMni o'tishda xatolarni to'g'rakash va yordam ko'rsatishning qanday usullaridan foydalaniladi?

4. Mazkur mashq (asosan) qaysi mushak guruhiga qaratilganligini aniqlang.



### **3-nazorat ishi.**

**Mavzu: “Saf mashqlari”.**

Safda elementga to'g'ri nom bering.

#### **I variant:**

a) interval – bu:

- shug'ullanuvchilar orasidagi frontal masofa;
- qator bo'lib saflanganda shug'ullanuvchilar orasidagi masofa;
- ketma-ket qator bo'lib saflangandagi shug'ullanuvchilar orasidagi masofa;
- ketma-ket qator orasidagi masofa;
- qator bo'lib saflanganda shug'ullanuvchilarining tirsaklari orasidagi masofa.

b) ketma-ket qator (kolonna) – bu:

- shug'ullanuvchilarning bir-biriga orqama-orqa joylashishi;
- shug'ullanuvchilar bir-biriga orqama-orqa turganda saflanishi;
- shug'ullanuvchilarni bo'y bilan saflanib turishi;
- shug'ullanuvchilarni bir tomonga qarab saflanib turishi.

c) orqa tomon – bu:

- shug'ullanuvchilarning bir tomonga orqasi bilan joylashishi;
- frontga qarama-qarshi saf tomoni;
- shug'ullanuvchilarining bir tomonga qarab bir chiziqda orqa bilan turgan saf;

- shug'ullanuvchilarni orqa bilan turgan saf tomoni.

d) safning eni – bu:

- qatorning uzunligi;
- flang orasidagi masofa;
- saf boshidan oxirigacha bo'lgan masofa;
- ketma-ket qatorning boshidan oxirigacha bo'lgan masofa.

#### **II variant:**

a) interval – bu:

- shug'ullanuvchilar orasidagi frontal masofa;
- qator bo'lib saflanganda shug'ullanuvchilar orasidagi masofa;
- ketma-ket qator bo'lib saflangandagi shug'ullanuvchilar orasidagi masofa;
- ketma-ket qator orasidagi masofa;
- qator bo'lib saflanganda shug'ullanuvchilar tirsaklari orasidagi masofa.

b) distansiya – bu:

- qator bo'lib joylashgan shug'ullanuvchilar orasidagi masofa;
- shug'ullanuvchilar orasidagi chuqurlik masofa;
- ketma-ket qator orasidagi masofa;
- ketma-ket qator turuvchilar orasidagi ma'lum masofa.

c) qator (sherenga) – bu:

- shug'ullanuvchilarning bir chiziq bo'ylab joylashishi;

- shug'ullanuvchilarning biri boshqasini yonida bir tomonga yuzlanib saflanishi;

- shug'ullanuvchilarning biri boshqasi yonida bir kaft oralig'idagi masofada bir chiziqqa joylashishi;

- shug'ullanuvchilarning bir chiziqda yyelka barobar bo'lib saflanishi;

- shug'ullanuvchilarning bir chiziqda yyelka barobar ma'lum intervalda joylashishi.

d) boshlovchi – bu.

1. qatordagi birinchi;

2. berilgan yo'nalishga birinchi bo'lib harakatlanadigan shug'ullanuvchi;

3. butun saf oldida harakatlanadigan shug'ullanuvchi;

4. safda birinchi bo'lib berilgan yo'nalish bo'yicha turadigan yoki harakatlanadigan shug'ullanuvchi.

### **III variant:**

a) saf – bu:

- nizom bo'yicha shug'ullanuvchilarning joylashishi;

- shug'ullanuvchilarni o'zaro faoliyati uchun joylashishi;

- shug'ullanuvchilarni o'zaro faoliyati uchun nizom bo'yicha joylashishi;

- shug'ullanuvchilarni boshqacha holatda qayta saflanishi;

- shug'ullanuvchilarni distansiya va intervalga rioya qilgan holda nizom bo'yicha joylashishi.

b) flang – bu:

- saf chekkasi;

- safning o'ng va chap oxirlari;

- yonma-yon qatorning o'ng va chap oxirlari;

- saf boshi va oxiri.

c) front – bu:

- shug'ullanuvchilar bir tomonga qarab turadigan saf;

- shug'ullanuvchilarni yuzlanib turgan saf tomoni;

- shug'ullanuvchilarni bir chiziqqa, bir tomonga yuzlanib saflanishi;

- safning oldingi chizig'i;

- saf, qator, ketma-ket qatorning old qismi.

### AMALIY VAZIFALARINI BAJARISH NAMUNALARI

Ayrim vazifalar	Mazmuni	Me'yori	Chizma yozuv	Tashkiliy-uslubiy ko'rsatma
Tushuntirish yordamida tasavvur hosil qilish.	D.h. – A.t. 1 – o'ng oyoq orqada oyoq uchida, qo'llar yuqorida 2 – D.h. 3-4 – shuning o'zi, chap oyoqda	6-8 marta		1-3 – oyoqlar to'g'ri, qo'llarga qarash, yuqoriga cho'zilish; 2-4 – qo'llarni bo'shashtirmasdan qorinni tortish to'g'ri qad-qomatni saqlash.
Ko'rsatib berish yordamida tasavvur hosil qilish.	D.h. – A.t. 1 – yonga o'ng oyoqqa tashlanish, qo'llar oldinda. 2 – D.h. 3 – yarim cho'qqayib o'tirish, qo'llar yonda. 4 – D.h. 5-8 – shuning o'zi, chapga.	6-8 marta	Rasm	Shug'ullanuvchilarga yarim burilib ko'rsatish. 1- va 5- oldinga egilmasdan, tayanchsiz, oyoq to'g'ri, qo'llarni tarang ushslash; 2-6 – oyoqlarni juftlash 3-7 – orqani to'g'rilib, yarim cho'qqayib o'tirish
Tushuntirish va ko'rsatish yordamida tasavvur hosil qilish.	D.h. – qo'llar belda. 1 – oyoq uchida turib, qo'llar yonda; 2 – qo'llarni aylantirib yuqoriga; 3 – oyoq uchida turib qo'llar yuqoriga; 4 – d.h.	8-10 marta		Oyna ko'rinishida, bir vaqtning o'zida atama bilan tasvirlash. 1 – bukilmasdan, qo'llar tarang, tovonlar birga; 2 – qo'llar to'g'ri, old tomonda aylantirish; 3 – yuqoriga cho'zilish, qo'llarga qarash; 4 – bo'shashmasdan, orqa to'g'ri.

32

Mashq to'g'risida bo'limlar bo'yicha tasavvur hosil qilish	D.h. – A.t. 1 – tayanib cho'qqayib o'tirish; 2 – tayanib yotish; 3 – qo'llarni bukib tayanib yotish; 4 – tayanib yotish; 5-6 – 3-4-dagidek. 7 – tayanib cho'qqayib o'tirish; 8 – d.h.	6-8 marta		Tushuntirish bilan bir vaqtida ko'rsatish va shug'ullanuvchilar bilan birga bajarish: Dastlabki holatni qabul qiling! 1 – tayanib cho'qqayib o'tirish – bir! Qo'llar to'g'ri, qo'llarga tayanish. 2 – tayanib yotish – ikki! Tana to'g'ri, qo'llarni bukmasdan, bosh to'g'ri. 3 – qo'llarni bukib tayanib yotish – uch! Bukilmasdan, qo'llarni gavda oldida bukish. 4 – tayanib yotish – to'rt! Tayanib yotish, faqat qo'llar hisobiga. 5 – qo'llarni bukib tayanib yotish – besh! 6 – tayanib yotish – olti! 7 – tayanib cho'qqayib o'tirish – etti! 8 – d.h. – sakkiz!
--	--	-----------	--	---

33

### ANATOMIK YO'NALISH BO'YICHA URM MAJMUASI

Yo'nalishi	Mazmuni	Me'yori	TUK
1. Tortilish uchun	URM majmuasi zich qatorda. 1. D.h. – qatorda pastdan qo'l ushlashib turish. 1 – o'ng oyoq oldinda oyoq uchida, qo'llar oldinda – yonda; 2 – oyoqlarni kerib uchida turish, qo'llar yuqorida – yonda; 3 – chap oyoqda turib, o'ng oyoq oldinda oyoq uchida, qo'llar oldinda; 4 – d.h. 5-8 – boshqa oyoqda.	6-8 marta	Bo'lib o'tish usuli. Frontal. Tasavvur hosil qilish usuli: bo'limlar bo'yicha. Oyoq to'g'ri, uchini cho'zish. Qo'llarga qarash, cho'zilish, qo'llarni aniq yuqoriga ochish. Sur'at: sekin.
2. Oyoq mu-shaklari uchun	2. D.h. – qatorda pastdan qo'l ushlashib turish. 1 – o'ng oyoqqa tashlanish, qo'llar oldinda – yonda; 2 – d.h. 3 – chap oyoqqa tashlanish, qo'llar oldinda – yonda; 4 – d.h. 5 – o'ng tizzada tik turib, qo'llar yonga bukilgan; 6 – tizzalarda tik turib, qo'llar yuqorida – yonda; 7 – chap tizzada tik turib, qo'llar yonga bukilgan; 8 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Qorinni tortish, chap oyoq to'g'ri, yyelkalar oldinga "qaragan". Qo'llarning aniq holatiga ahamiyat berish. Qo'llar to'g'ri. Hisob bilan, sinxron bajarish. Yyelkalarni burmasdan qo'llar to'g'ri, tarang. Sur'at: o'rtacha.

3. Qo'l mu-shaklari uchun	3. D.h. – ketma-ket qatorda turib, qo'llar oldinda turgan shug'ullanuvchining yelkasida. 1 – o'ng qo'lni yuqoridan aylantirish; 2 – d.h. 3 – chap qo'lni yuqoridan aylantirish; 4 – d.h. 5 – qo'llar yonda; 6 – qo'llar yuqorida chapak chalish; 7 – qo'llar yelkada; 8 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Qo'lni maksimal amplitudada aylantirish, qo'llar tarang. Harakatni sinxron bajarish. Yelkalarni tushirib, kuraklarni ochish, chapakni to'g'ri qo'llar bilan bajarish. Sur'at: o'rtacha.
4. Gavdaning to'g'ri mu-shaklari uchun	4. D.h. – qatorda qo'llarni pastdan ushlab turish. 1 – qo'llar yuqoriga – yonga; 2 – kerishib egilish; 3 – egilib qo'llar orqada – yonda; 4 – d.h.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Qo'llarning aniq holatiga ahamiyat berish. Kerishish, boshni ko'tarish, qo'llar to'g'ri. Sur'at: o'rtacha.
5. Gavdaning ko'ndalang mushaklari uchun	5. D.h. – qatorda oyoqlarni kerib turish, qo'llar yondagi shug'ullanuvchilar yelkasida. 1 – kerishib egilish; 2 – qo'llar yuqorida; 3 – egilib, qo'llardan ushlash; 4 – oyoqlar kerilgan, qo'llar oldinda – yonda; 5 – qo'llarni yoysimon yuqoriga, qo'lliq ostidan ushlash. 6-7 – orqaga yarim egilish; 8 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Kerishish, boshni ko'tarish, oyoqlar to'g'ri, kaftlar ichkariga qaragan. Bosh orqaga burilgan, yelkalar tushgan. Sur'at: sekin.

6.	U: umiy ta'sir uchun	6. D.h. – ketma-ket qatorda oyoqlarni kerib turish, qo'llar oldinda turgan shug'ullanuvchining belida. 1 – chapga egilish, chap qo'l yuqorida; 2 – d.h. 3 – o'ngga egilish, o'ng qo'l yuqorida; 4 – d.h. 5 – yarim cho'qqayib gavdani chapga burish, chap qo'l yonda; 6 – d.h. 7 – yarim cho'qqayib gavdani o'ngga burish, o'ng qo'l yonda; 8 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Egilishni aniq yonga bajarish, o'ng qo'l to'g'ri. Chap qo'lga qarash, qo'l to'g'ri. Sur'at: sekin.
		7. d.h. – qatorda qo'llarni pastdan ushlab turish. 1 – cho'qqayib, qo'llar oldinda – yonda; 2 – tayanib cho'qqayib o'tirish; 3 – sakrab tayanib yotish; 4 – qo'llarni bukib tayanib yotish; 5 – tayanib bukilib turish; 6 – egilib, qo'llardan ushlash; 7 – to'g'riyanib, qo'llar yuqorida – yonda; 8 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Orqa to'g'ri, yelkalar tushirilgan, qo'llar to'g'ri, tarang. Depsinishni ikki oyoq bilan baravar bajarish. Qorinni tortish, qo'llar gavda oldida bukiladi, boshni egmasdan bajariladi. Sur'at: o'rtacha.
7.	Qorin pressi mu-shaklari uchun	8. D.h. – ketma-ket qatorda oyoqlarni kerib, orqaga tayanib o'tirish. 1 – chap oyoqni ichkariga oldinda tayanib o'tirgan shug'ullanuvchi ustidan o'tkazish; 2 – orqaga tayanib burchak ushlab o'tirish; 3 – orqaga tayanib o'tirish; 4 – chap oyoqni tashqariga oldinda tayanib o'tirgan shug'ullanuvchi ustidan o'tkazib d.h. 5-8 – boshqa oyoqda.	6-8 marta	Tushuntirish va ko'rsatib berish. To'g'ri qo'llarga tayanish, oyoqlar to'g'ri, bir vaqtida ko'tarish, oyoq uchini cho'zish. Tosni baland ko'tarish, gavda va oyoq bitta to'g'ri chiziqda. Sur'at: o'rtacha.

36

8.	Orqa mu shaklar uchun	9. D.h. – qatorda qorin bilan yotish, qo'llar bilan yuqoridan ushlash. 1 – orqaga egilish; 2 – oyoqni orqaga ko'tarish, qo'llar bosh orqasida; 3 – ushlab turish, qo'llar bilan yuqoridan ushlash. 4 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Gavdani orqaga maksimal ko'tarish, qo'llar to'g'ri. Oyoqlar to'g'ri, tarang. Tirsaklar yonga yo'naltirilgan. Sur'at: sekin.
9.	Cho'ziluv- chanlik uchun	10. D.h. – ketma-ket qatorda oyoqlarni kerib orqaga tayanib o'tirish, qo'llar oldinda turgan shug'ullanuvchining yelkasida. 1 – qo'llar yuqorida; 2 – chap oyoqqa egilish; 3 – qo'llar yuqorida; 4 – d.h. 5-8 – boshqa tomonga.	4-6 marta	Bo'limlar bo'yicha. Oyoqlarni bukmasdan, qo'l holatiga ahamiyat berish. Chuqurroq egilish. Qo'llar to'g'ri, boshni o'ngga burish. Sur'at: o'rtacha.
10.	Siltashlar	11. D.h. – qatorda turib, qo'llar yonda turgan shug'ullanuvchi yelkasida. 1 – o'ng oyoqni bukib oldinga; 2 – d.h. 3 – chap oyoqni bukib oldinga; 4 – d.h. 5 – o'ng oyoqni siltash; 6 – d.h. 7 – chap oyoqni siltash; 8 – d.h.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Tayanch oyoq to'g'ri, bukilgan oyoq tizzasi oldinga "qaragan", oyoq uchini cho'zish. Yuqiroq siltash, orqa to'g'ri, yelkalar tushgan. Siltanuvchi oyoqni aniq d.h. ga tushirish. Sur'at: o'rtacha.
11.	Sakrash- lar	12. D.h. – qatorda qo'llarni pastdan ushlab turish. 1 – sakrab chap oyoqni bukib, o'ng oyoq orqada; 2 – sakrab d.h. 3 – sakrab o'ng oyoqni bukib, chap oyoq orqada; 4 – sakrab d.h. 5 – sakrab chap oyoqda yarim cho'qqayish, o'ng oyoq oldinda oyoq uchida, qo'llar oldinda – yonda; 6 – d.h. 7 – sakrab o'ng oyoqda yarim cho'qqayish, chap oyoq oldinda oyoq uchida, qo'llar oldinda – yonda; 8 – d.h. Joyida yurish.	4-8 marta	Ko'rsatib berish. Yuqiroqqa sakrash. Oyoq uchini dumbaga tekka zish. Egilmasdan, boshni to'g'ri tutish, qo'lning to'g'ri holatiga ahamiyat berish. Sur'at: tez.

12. Nafasni rostlash uchun	13. D.h. – ketma-ket qatorda turib, qo'llar oldinda turgan shug'ullanuvchining yelkasida. 1 – o'ng oyoqda yonga bir qadam, o'ng qo'l yonda; 2 – oyoq uchida turish, o'ng qo'l yuqorida, chap qo'l yonda; 3 – oyoqlar kerilgan, o'ng qo'l yonda, chap qo'l oldinda turgan shug'ullanuvchining yelkasida; 4 – d.h. 5-8 – boshqa tomonga.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Oyoq uchidan qadam qo'yish, qo'llar tarang, yuqoriga qo'lga qarash. Sur'at: sekin.
----------------------------	---	-----------	--

## AMALIY GIMNASTIKA VOSITALARI DAN FOYDALANILGAN ESTAFETALAR KONSPEKTI

Dars qismi	Ayrim vazifalar	Vositalar	Me'yori	TUK
Tayorgarlik qismi, 8 daq.	<p>1. Estafetani bajarish uchun shug'ullanuvchilarni tashkil qilish.</p> <p>2. Estafeta joyini tayyorlash.</p> <p>3. Mashqni bajarish to'g'risida tasavvur hosil qilish.</p> <p>4. Tezlik va epchillikni rivojlantirish.</p> <p>5. Yakun yasash.</p>	<p>1. Bir qatorga saflanish. 2. Ikki qatorga saflanish.</p> <p>1. Matlarni olib kelish. 2. O'rindiqlarni olib kelish. 3. Jihozlarni joylashtirish.</p> <p>1. Tushuntirib ko'rsatib berish. 2. Sinab ko'rish.</p> <p><i>Bosqichlar:</i> 1 – o'rindiqqacha yugurish; 2 – tayanib tizzalarda tik turib o'rindiq bo'ylab emaklash; 3 – 5 marta to'pni bosh ustida otish; 4 – gardishdan 2 marta sakrash; 5 – bir (ikki) oyoqda sakrab qaytish; 6 – estafetani uzatish.</p> <p>1. Qatorga saflash. 2. G'oliblarni aniglash.</p>	<p>10 s 15 s</p> <p>1-1,5 daq</p> <p>30 s 30 s</p> <p>3-4 daq</p> <p>15 s 15 s</p>	<p>"Bir qatorga – SAFLANING!" "Bir, ikkiga-SANANG!" "Ikki qatorga SAFLANING!" 2 guruhga yig'ib, ketma-ket qatorga burish.</p> <p>Estafeta uchun joy tayyorlash: matlar, to'plar, gardish, o'rindiqlarni qo'yish.</p> <p>Estafeta qoidalarini mashq bosqichlarida ko'rsatish bilan tushuntirish.</p> <p>Birinchi o'yinchi o'rindiqqacha yugurib borib, o'rindiq bo'ylab emaklaydi. To'pgacha yugurib borib, matda turib uni bosh ustida 5 marta otib o'ynaydi. Gardishga yugurib borib, gardishdan 2 marta sakrab o'tadi va orqaga bir (ikki) oyoqda sakrab qaytadi. Estafetani ikkinchi o'yinchiga uzatadi va h.k. texnikadagi har bir xato – jarima. Estafetani birinchi yakunlagan va jarimalari kam bo'lgan jamoa g'olib bo'ladi.</p>

**FAN BO'YICHA MAVZU VA SOATLARNING NAMUNAVIY  
TAQSIMLANISHI.**

**III BOSQICH**

No	Mavzu	Naza- riy	Amaliy- uslubiy mashg'ulot	Mustaqil ish	Jami
1.	Gimnastika mashq texnikasining umumiy asoslarini o'rgatish uslubiyoti va texnologiyasi	4	14	6	24
2.	Gimnastika vositalari va uni o'tish uslubiyoti		16	6	22
3.	URM va uni o'tish uslubiyoti		6	4	10
4.	Ritmik gimnastika mashqlari		2	2	4
5.	Gimnastika atamalari		2	2	4
<b>Jami:</b>		<b>4</b>	<b>40</b>	<b>20</b>	<b>64</b>

**FANNING QISQACHA MAZMUNI**

**III BOSQICH**

**Mavzu: "Gimnastika mashqlari texnikasining umumiy asoslarini o'rgatish uslubiyoti va texnologiyasi" – (---)**

***Nazariy* (---).**

Gimnastika asboblarida mashqlar, tayanib sakrash, akrobatika mashqlari tasnifi va tavsifi. Statik mashqlar va kuch bilan harakatlanish texnikasi asoslar. Siltanish mashqlari, tayanib sakrash va akrobatika mashqlari texnikasi asoslar. O'rgatish uslubiyoti va texnologiyasini aniqlash. Gimnastika mashqlarini o'rgatish texnologik sxemasi mazmuni (tayyorgarlik turlari, xatolar, ularning sabablari, ularni bartaraf qilishning uslubiy usullari).

***Amaliy-uslubiy mashg'ulot* (---).**

O'rgatish texnikasi va texnologiyasini tahlil qilish:

***Turnik:*** tebranish, siltanib ko'tarilish, chap (o'ng) oyoqni oldinga aylanish, tayanib orqaga aylanish, tayanib o'ng (chap) oyoqni o'tkazish, yoysimon siltanish, orqaga siltanib sakrab tushish.

***Boland-past qo'shpoya:*** osilish va tayanish turlari, cho'qqayib osilishdan bir oyoqda siltanib, bir oyoqda depsinib, yuqorigi poyaga to'ntarilib chiqib tayanish; bukilib tebranish, burchak o'tirishdan  $180^{\circ}$  ga burilib sakrab tushish, yuqorigi poyada tayanib turgan holatda pastki poyada osilib yotishga tushish.

***Parallel qo'shpoya:*** tayanish va unda harakatlanish; tayanib tebranish; orqaga siltanib ko'tarilish, yelkalarda tik turish; oldinga o'mboq oshib, oyoglarni kerib o'tirish; oldinga siltanib ko'tarilish; orqaga siltanib sakrab

tushish, oldinga siltanib  $180^{\circ}$  ga burilib sakrab tushish, tayanib chap (o'ng) oyoqni o'tkazish; yoysimon tebranish; orqaga siltanib sakrab tushish.

*Akrobatika*: oldinga, orqaga o'mboloq oshish, uzun o'mboloq oshish, boshda va qo'llarda tik turish, qo'llarda tik turib oldinga o'mboloq oshish (erk.), yonga to'ntarilish, yonga dumalash va aylanma dumalash.

*Tayanib sakrash*: tayanib sakrash fazalari; oyoqlarni bukib sakrash, oyoqlarni kerib sakrash,  $90^{\circ}$  ga burilib yon bilan tayanib sakrash.

*Yakkacho'p*: turli harakatlanish; o'ng tizzada tik turib orqaga siltanib sakrab tushish; oldinga (orqaga) siltanib burilish.

*O'quv amaliyoti*: yordam berish va ehtiyyotlash; xatolar va ularni paydo bo'lish sabablarini aniqlash, muvofiq vazifalar yordamida ularni bartaraf qilish, yordamchi usullarni qo'llash. Ko'rsatib berish malakasini takomillashtirish va mashq texnikasini tushuntirishni bilish.

*Mustaqil ish* (---).

O'qituvchining bergan vazifasiga ko'ra aniq elementlarni o'rgatish texnologiyasi mazmunini ishlab chiqish va texnologik ishlanma konspektini yozish (mikrosinov).

**Mavzu: "Gimnastika vositalari va ularni o'tish uslubiyoti"** (---).

*Amaliy-uslubiy mashg'ulot* (---).

*Saf mashqlari*: Saf mashqlarini har xil usulda takomillashtirish, maktab darsining tayyorlov va yakuniy qismiga mazkur vositalarni kiritish yoki talabalar bilan o'quv amaliyoti o'tkazish. Mavzu bo'yicha nazorat ishi.

*Amaliy mashqlar*: yuklarni tashish, amaliy mashqlar bilan o'yinlar, estafetalar (tirmashib chiqish, emaklash, muvozanat mashqlari). Gimnastika asboblarida jismoniy sisatlarni rivojlantirish uchun amaliy xarakterga ega mashqlar, sakrashlar.

*Turnik*: siltanib ko'tarilish, yoysimon osilib orqaga tebranib sakrab tushish. I va II bosqich dastur elementlarida o'quv kombinatsiyasi. Sinov kombinatsiyasi – mikrosinov.

*Baland-past qo'shpoya (a)*: yuqorigi poyada tayanib turishdan yoysimon siltanib pastki poyada osilib yotish, pastki poyada cho'qqayib osilishdan to'ntarilib yuqorigi poyada tayanib turish; pastki poyada burchak ushlab o'tirib sakrab tushish. I va II bosqich dastur elementlarida o'quv kombinatsiyasi. Sinov kombinatsiyasi – mikrosinov.

*Yakkacho'p (a)*: oldinga harakatlanib, oyoq holatlarini almashtirib sakrash; baland qadam, polka qadamlari, oldinga (orqaga) siltanib  $180^{\circ}$  ga burilish; o'ng (chap) tizzada tik turib bir oyoqda siltanib va ikkinchisidadepsinib kerishib sakrab tushish. I va II bosqich dastur elementlarida o'quv kombinatsiyasi. Sinov kombinatsiyasi – mikrosinov.

*Tayanib sakrash:* ko'ndalang qo'yilgan otdan oyoqlarni bukib va kerib sakrash (a), uzunasiga qo'yilgan otdan oyoqlarni bukib va kerib sakrash (e) Tayanib sakrash fazalarini takomillashtirish. Sinov uchun sakrash – mikrosinov.

*Parallel qo'shpoya (e):* turli tayanishlarda tebranish, yelkalarda tik turish oldinga o'mboloq oshib, oyoqlarni kerib o'tirish, siltanib ko'tarilib oyoglam, kerib o'tirish, I va II bosqich dastur elementlarida o'quv kombinatsiyasi. Sing kombinatsiyasi – mikrosinov.

*Badiiy gimnastika mashqlari:* milliy (ruscha, polka qadamlari) va klassik (vals) raqs qadamlari elementlari. Qo'l va oyoq holatlari (a). Siltashlari burilishlar. "To'lqinlar". I va II bosqich dastur elementlarida o'quv raqs kombinatsiyasi. Sinov kombinatsiyasi – mikrosinov.

*Akrobatika mashqlari:* boshda va qo'llarda tik turish, yonga to'ntarilish, uzun o'mboloq oshish, muvozanat saqlash, qo'llarda tik turib oldinga o'mbalib oshish. I va II bosqich dastur elementlarida o'quv kombinatsiyasi. Sing kombinatsiyasi erkin mashqlar – mikrosinov.

*O'quv amaliyoti:* gimnastika mashqlari elementlari, birikmalari va kombinatsiyalarini amalda bajarish bilan birga ko'rsatish, tushuntirish, gimnastika vositalarini bajarish uchun guruhni tashkillashtirish malakalarini takomillashtirish. Oldindan ishlab chiqilgan konspekt bo'yicha darsning tayyorlov va yakuniy qismini o'tish. Oliy o'quv yurti I va II bosqichlarida o'tilgani gimnastika vositalari orqali vazifalarni hal qila olishni takomillashtirish (mikrosinovlar).

*Mustaqil ish:* (---). Sinov kombinatsiyalarini muvaffaqiyatlil o'zlashtirish uchun gimnastika vositalari orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish, sanah o'tilgan gimnastika mashqlari texnikasini o'rganish; ko'rsatib berish tushuntirish, yordam berish va ehtiyyotlash malakalarini takomillashtirish. "Asboblarda mashq o'tishni tashkil qilishda jarohatni oldini olish choralarini mavzusi bo'yicha ma'lumotlar ishlab chiqish. "Gimnastika vositalari" mavzusini bo'yicha nazorat ishiga tayyorlanish.

*Mavzu: "URM va uni o'tish uslubiyoti" – (---).*

*Amaliy-uslubiy mashg'ulot* (---). Majmuali xarakterga ega URMlarni bajarish: kuchni, egiluvchanlikni rivojlantirish, to'g'ri qad-qomatni shakllantirish uchun. Buyumlar bilan (tayoqchalar, gantellar, to'plar, gardishlar) hamda buyumlarsiz (juft bo'lib, doira bo'lib) umumrivojlantiruvchi mashqlarda harakat koordinatsiyasini rivojlantirish. URMni harakatda o'tish usuli (aylanib) va uzlaksiz o'tish usuli texnologiyasini tahlil qilish. Shug'ullanuvchilarining yoshi, tayyorgarligi va vazifaga ko'ra darsning turli qismlarida URM o'tish uslubiyoti. Mavzu bo'yicha nazorat ishi.

Buyumlar bilan URMni bo'lib o'tish va uzlaksiz o'tish usuli bo'yicha o'quv amaliyoti. Ko'rsatib berish, mashqni tushuntirish, buyruq berish, xatolarni tuzatish, yordam ko'rsatishni bilish (mikrosinov).

**Mustaqil ish** (---). Konspektning asosiy mazmunini ishlab chiqish va URM o'tish bo'yicha o'quv amaliyotiga tayyorlarlik ko'rish. Mavzu bo'yicha nazorat ishiga tayyorlanish.

**Mavzu:** "Ritmik gimnastika mashqlari" – (---).

**Amaliy-uslubiy mashg'ulot** (---).

URM majmuasini, raqs mashqlarini uzlusiz usulda bajarish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, organizmning funksional tizimlarini takomillashtirish.

**O'quv amaliyoti:** atamalarga muvofiq ritmik gimnastika majmuasini ko'rsatish.

**Mustaqil ish** (---). O'qituvchining taklifiga ko'ra ritmik gimnastika majmuasini mustaqil o'rganish, har bir mashqqa mos uslubiy ko'rsatmalar topish, harakatlarni musiqa jo'rligida bajarishga o'rgatish.

**Mavzu:** "Gimnastika atamalari" (---).

**Amaliy-uslubiy mashg'ulot** (---).

O'quv amaliyoti bilan birga gimnastika mashqlari texnikasini ta'riflash va tushuntirish. Darsning tayyorlov va yakuniy qismlari konspektini yozishning uslubiy tahlili. Mavzu bo'yicha nazorat ishi: mashqlarning matni va atamasiga qarab chizma yozuv va uning aksi.

**Mustaqil ish** (---).

URM majmuasi mazmunini yozish (buyumsiz va buyumlar bilan), ritmik gimnastika majmuasini atamalar bilan yozishni o'rgatish; muktab darsining tayyorlov va yakuniy qismi asosiy mazmunini atamalar bilan yozish; gimnastika elementlariga o'rgatishning texnologik ishlanmasini yozish.

### **III bosqich uchun attestatsiya talablari**

**III bosqichni tugallagan ta'labalar:**

- asboblarda gimnastika mashqlari, tayanib sakrash va akrobatika mashqlari tasnitini;

- muvozanat saqlash, siltanish mashqlari, akrobatika elementlari texnikasining biomexanik asosini;

- mashq o'rgatishda so'z, ko'rsatmalilik, yaxlit va bo'lib o'tish uslublarini;

- gimnastika mashqlariga o'rgatishning "uslubiy" va "texnologik" tushunchalarini;

- gimnastika mashqlariga o'rgatishning texnologik sxemasini;

- gimnastika mashqlarini bajarish vaqtidagi xato turlarini;


- URMni bo'lib o'tish, uzlusiz va harakatda o'tish texnologiyasini (shuning bilan birga ritmik gimnastika mashg'ulotining xususiyatlari);

- muktab dasturiga kiritilgan asosiy gimnastika vositalari texnikasi va uni o'tish uslubiyotini;

- turli gimnastika vositalarini yozish shaklini;

- məktəb dəsturidəgi məşqlərni (körsətib bərəş məqsədida) alohida və gimnastika köpkurashi kombinatsiyalarida bajara olishni (mikrosinov);
  - gimnastika köpkurashi məşqləri və amaliy gimnastika məşqlərinə bəharışda ehtiyotlash və yordam bera olishni;
  - URM-nı alohida o'tish (buyumlar bilən) və hərakatda o'tish usulü bo'yicha konspekt ishləb chiqishni (mikrosinov);
  - uzluksız usulda 4 tə URM və bo'lib o'tish usulida buyumlar bilən URM möjmuasını o'tishni (mikrosinov);
  - ritmik gimnastika möjmuasını hisab bo'yicha və uslubiy körsətəmə bilən körsətib bərəşni (mikrosinov);
  - berilgən vazifəyə müvafiq dərsnin təyyorlov qismi konspektini ishləb chiqishni (mikrosinov);
  - guruhlarda dərsnin təyyorlov qismini o'tishni (mikrosinov);
  - berilgən vazifəyə müvafiq dərsnin yaxuniy qismi konspektini ishləb chiqishni (mikrosinov);
  - guruhlarda dərsnin yaxuniy qismini o'tishni (mikrosinov);
  - gimnastika elementlərini örgətish texnologiyası konspektini ishləb chiqish və yoxishni (mikrosinov);
  - UJT mə'yərlərini bajara olishni;
  - rəqs qadamlarını hisab bo'yicha və uslubiy körsətəmə orqali körsətib bərəşni (mikrosinov) bilişli kerak.

Yaxuniy nəzariy attestatsiyadan o'ta olishi və yuqorida sanab o'tılğan talablarnı II bosqichda bajara olishi kerak.



### III BOSQICH TALABALARI UCHUN UJT ME'YORLARI

№	Mazmuni	Baholar		
		"3"	"4"	"5"
1.	Orqa bilan yotib qo'llar bosh orqasida – o'tirish (1 daqiqadagi soni) – o'g'il bola – qiz bola	40 20	45 27	50 40
2.	Tortilish (marta) turnikda osilishdan – o'g'il bola – osilib turishdan –qiz bola	9 10	11 12	14 15
3.	Qo'llarni bukib yozish (marta) qo'shpoyaga tayanib turib – o'g'il bola tayanib yotib – qiz bola	9 8	12 11	15 14
4.	Gimnastika devorida osilib burchak ushlab (marta): <135° burchak hosil qilish – o'g'il bola <90° burchak hosil qilish – qiz bola	10 10	15 15	20 20
5.	Egilish	Polga tegish	Kaftlarni to'liq polga	Boldirlarni ushlab
6.	Tayanib yotish holatidan sakrab tayanib cho'qqayib o'tirish 10 soniyada (marta): – o'g'il bola – qiz bola	8 8	9 9	11 10

*Eslatma:* me'yorlarni topshirish natijasida talaba umumiy sinov bo'yicha 24 balldan past olmasligi kerak.

**III BOSQICH TALABALARI UCHUN FAN BO'YICHA TEXNOLOGIK XARITA**

No	Mavzular	Mazmuni	O'quv-uslubiy qo'llanma va jihozlar	Talabalarning mustaqil ishi	Nazorat shakli
1	Mashqlar texnika-sining umumiy asoslari, gimnas-tika mashqlariga o'r-gatish uslubiyoti va texnologiyasi	<b>Nazariy</b> (---). 1. Asboblardagi gimnastika mashqlari, tayanib sakrash, akro-batika mashqlari tavsifi va tasnifi. 2. Gimnastika ko'pkurashi mashqlari texnikasining asosi. 3. Gimnastika mashqlariga o'r-gatish texnologik sxemasi.	Rasmlar, jadvallar. Gimnastika elementlariga o'r-gatish texnologik ishlan-malarga misollar.	I s. Gimnastika bo'yicha ma'ruba materiallari, qo'shim-chaga adabiyotlarni o'rganish.	Sinovda savolvajob.
2	Mashg'ulot № 1-4. URM texnikasi-ning umumiy asos-lari va ularni o'tish uslubiyoti. Gimnastika vositalari va ularni o'tish uslubiyoti. Gimnastika atama-lari	<b>Amaliy-uslubiy mashg'ulot</b> (-). Buyumlar bilan (gantellar, to'p-lar, tayoqcha, gardish). o'r-in-diqda, doirada, gimnastika devo-ri oldida majmuaviy xarakterga ega URM. Jismoniy sifatlar (kuch, egiluvchanlik, koordina-tsiya, tezlik va chidamlilik)ni shakllantirish, to'g'ri qomatni rivojlantirish uchun URM. URMni harakatda o'tkazish uslubiyotini muhokama qilish. Saf mashqlari: o'tish malakala-rini takomillashtirish. 2-nazorat	Anatomik va uslubiy yo'nalihsidagi, buyumlar bilan va buyumlarsiz URM majmuasidan namunalar. 1-nazorat ishidan kartoch-kalar (mashqlarni loyiha-lashtirish). URM o'tish o'quv amaliyoti bo'yicha vazifalar.	4 s. Gimnastika mashqlarining maxsus texnikasini o'rganish. Bajarish texnikasi va xatolarni kelib chiqishini mustaqil tahlil qilish sabab-larini aniqlash hamda ularni bartaraf qilish yo'llari. URM-larni ko'rsatib berish va tu-shuntirish hamda saf mashq-larida buyruq berish mala-kalarini takomillashtirish. 1 va 2-nazorat ishiga tayyorgarlik. URM majmuasini o'tish o'quv amaliyotiga tayyorgarlik. O'qituvchining	<b>Nazorat ishi.</b> Buyumlar bilan (10-12 mashq) va buyumlarsiz harakatda o'tish usuli bilan (4 mashq) URM majmuasini konsept qilish.

46

		ishi. Amaliy mashqlar: tirmashib chiqish va uloqtirish, yugurish, sakrash qo'llanilgan o'yinlar.		vazi-fasi bo'yicha URM majmuasi konspektini yozish.	
		Maktab dasturidagi gimnastika mashqlari texnikasini muhokama qilish. Muvozanat saqlash, statik mashqlar, kuch bilan harakatlanish, sultanish mashqlari, tayanib sakrash, akrobatika mashqlari texnikasi asoslari. Buyumlar bilan va buyumlarsiz mashqlarni atamalardan foyda-lanib yozish, gimnastika asboblaridagi mashqlar texnikasini yozishni takomillashtirish.	2-nazorat ishi kartoch-kalari. Jismoniy tarbiya bo'yicha maktab dasturi. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Солодянников В.А. Технология обучения гимнастическим упражнениям начального этапа подготовки гимнастов и программы общеобразовательной школы. Учебн. пособие. – СПб ГАФК им. П.Ф. Лесгафта, 1999	URM harakat usuli bo'yicha o'tish texnologiyasini mus-taqil ishlab chiqish. URM va gimnastika asboblaridagi mashqlar atamalarini takror-lash.	2-nazorat ishi URM majmuasini o'tish bo'yicha mikrosinov. (10-12 mashq).
3	Mashg'ulot № 5-9. URM va uni o'tish uslubiyoti. Gimnastika vositalari va ularni o'tish uslubiyoti. Ritmik gimnastika.	<b>Amaliy-uslubiy mashg'ulot</b> (--). URMni uzlusiz usulda o'tish uslubiyotini muhokama qilish. Saf mashqlarini o'yinlar va o'quv vazifalarida o'tish malaka-larini takomillashtirish. Amaliy gimnastika vositalari yordamida estafeta shaklida	Qo'shimcha adabiyot: 1. Смоленский В.М., Гавердовский Ю.К. Спортивная гимнастика. Учебник для институтов физкультуры. Киев, 1999. 467 с.	4 s. Mashg'ulotga nazariy va amaliy tayyorgarlik, buyruq bera olishni o'r-gatish, xato-larni to'g'rilash. Turli usul-larda URM o'tish texnologiyasini takomillashtirish. Amaliy gimnastika ele-	Polka qadami, ruscha raqs, vals qadamlari kombinatsiyasini ko'rsatib berish bo'yicha mikrosinov. Ritmik gimnastika

47

	Gimnastika atamalari.	(tirmashib chiqish, yuk tashish, uloqtirish va h.k.) jismoniy sifatlarni rivojlantirish. <i>Brevno</i> : muvozanat saqlash, III pozitsiyada oyoqlarni almashtirib sakrash, polka qadamlari, taya-nib turib sakrab, o'ng oyoqni o'tkazish. <i>Baland-past qo'shpoya</i> : yuqorigi poyada tayanishdan yoysimon siltanib pastki poyada osilib yotish, pastki poyada tayanish-dan o'tkazish, pastki poyada osilib yotish. <i>Turnik</i> : siltanib ko'tarilish, tayanish, tebranib yoysimon siltanib osilish. <i>Parallel qo'shpoya</i> : yelkalarda tik turish, oldinga o'mbozoq oshish, siltanib ko'tarilish. <i>Tayanib sakrash</i> : oyoqlarni bukib sakrash (a); uzunasiga qo'yilgan otdan oyoqlarni kerib sakrash (e). Sinov kombina-tsiyasini o'rgatish. <i>Akrobatika</i> : boshda va	mentlari bilan estafeta konspektlaridan namuna. Gimnastika ko'pkurashi-dan sinov kombinatsiya-lari. Ruscha raqs, vals, polka qadamlari elementlaridan sinov kombinatsi-yasi. Ritmik gimnastika majmuasi konspektidan namuna.	ma'lumotlarni muvaffaqiyatli egallash uchun gimnastika vositalari yorda-mida jismoniy sifatlarini rivojlantirish. Mikrosinovga, URM o'tish raqs kombinatsiyalarini va ritmik gimnastika kompleksini ko'rsatib berishga tayyor-garlik. Ritmik gimnastika kompleksini o'tish texnologiyasini takomillashtirish.	majmuasini namoyish qilishdan mikrosinov. URM majmuasini o'tish bo'yicha mikrosinov.
--	-----------------------	--	--	---	--

48

		qo'llarda tik turish, qo'llarda tik turish, yon bilan to'ntarilish. <i>Badiiy gimnastika mashqlari</i> : qo'l va oyoq holatlari, milliy va xalq raqlari elementlari, oyoqni oldinga va orqaga siltab qadamlab burilish, muvozanat turlari. URM majmuasi va raqs harakat-larini uzluksiz usulda ritmik gimnastika shaklida bajarish. Ritmik gimnastika vositalari jismoniy sifatlarni rivojlantirish, ritmik gimnastika shaklida razminka, ritmik gimnastika majmuasini o'rganish. <i>O'quv amaliyoti</i> : URM majmuasini uzluksiz usulda o'tish (ritmik gimnastika majmuasini hisob va uslubiy ko'rsatma bilan ko'rsatib berish).			
4	Mashg'ulot № 10-14. Gimnastika vositalari va ularni o'tish	<b>Amaliy-uslubiy mashg'ulot</b> (--). Darsning tayyorgarlik qismida saf, URM, amaliy, raqs mashq-larini o'tish malakasini takomil-lashtirish.	Maktab dasturi elementlarini o'rgatish bo'yicha texnologik ishlama yozish vazifasi. Texnologik ishlama	7 s. Maktab dasturidagi gim-nastika elementini o'rgatish texnologiyasini ishlab chiqish, yozish va himoyaga tayyor-lanish.	Gimnastika elementlariga o'r-gatishni ishlab chiqish texnologiyasi bo'yि-

49

	uc'ubiyoti. Gimnastika mashqlari texnika-sining umumiy asoslarini, o'rgatish uslubiyoti va tex- nologiyasi.	Gimnastika ko'pkurashi sinov kombinatsiyasini o'rgatish davomida bilim, ko'-nikma va malakalarni mustah-kamlash hamda yordam berish, ehtiyojlashni amaqlga oshirish.  Maktab dasturidagi gimnastika mashqlarini o'rgatish texnolo-giyasini muxokama qilish. 3-Nazorat ishi.  O'quv amaliyoti: ko'rsatib berish malakasini takomillashtirish, maktabda tayyorgarlik qismini o'tishda mashqlarni bajarishni tashkil qilishni tushuntirish. Mustaqil tashkillashtirish mala-kasini takomillashtirish: kons-pekti ishlab chiqish, dars qismlarini o'tish uchun nazariy hamda harakat tayyorgarlik. Oldindan ishlab chiqilgan kons-pekt bo'yicha maktab darsining tayyorgarlik va yakuniy qism-larini o'tish (vazifa bo'yicha). O'rgatish texnologiyasi	namunasi. Gim-nastika ko'pkurashidan sinov kombinatsiyasi. O'quv amaliyoti bo'yicha maktab darsining tayyor-garlik qismini o'tish vazifasi.  Maktabda tayyorgarlik qismini o'tishda mashqlarni bajarishni tashkil qilishni tushuntirish. Mustaqil tashkillashtirish mala-kasini takomillashtirish: kons-pekti ishlab chiqish, dars qismlarini o'tish uchun nazariy hamda harakat tayyorgarlik. Oldindan ishlab chiqilgan kons-pekt bo'yicha maktab darsining tayyorgarlik va yakuniy qism-larini o'tish (vazifa bo'yicha).	Gimnastika mashq-larini ko'rsatib berish va tushuntirib berishda, yordam berish hamda extiyotlashda o'z-o'zini takomillashtirish. 3-nazorat ishiga tayyorgarlik. Vazifalarga muvofiq maktab darsining tayyorgarlik qismi konspekti mazmunini ishlab chiqish va yozish. Amaliy sinovga tayyorgarlik. Maktab darsining yakuniy qismi konspekti mazmunini ishlab chiqish va yozish. Mikro-sinovga tayyorgarlik.	cha mikrosinov. Darsning tay- yorgarlik qis- mini o'tish bo'yicha mikro-sinov. Darsning yaku- niy qismini o'tish bo'yicha mikrosinov.
--	--	--	---	---	--

		usulla-rini ishlab chiqish: xatolarning kelib chiqishi, xatolar sabablari, to'g'rilovchi vazifalarni izlash.			
5	Mashg'ulot № 15-20. Gimnastika vositalari va ularni o'tish uslubiyoti. Gimnastika mashqlari texnikasi umumiy asoslarini o'rgatish uslubiyoti va texnologiyasi.	Amaliy-uslubiy mashg'ulot (--). Sifatli ko'rsatib berish va tushuntirish yordamida gimnastika ko'pkurashi mashqlari to'g'risida tasavvur yarata olishni takomillashtirish. I-II bosqichdagi elementlardan sinov kombinatsiyalari: parallel qo'sh-poya, baland- past qo'sh-poya, turnik, brevno, tayanib sakrash, erkin mashqlar.  4-nazorat ishi. O'quv amaliyoti: o'qituvchi bergen vazifaga binoan maktabdagisi darsning tayyorgarlik va yakuniy qismini o'tish.	Qo'shimcha adabiyotlar: Гимнастика. Учебное пособие для студентов вузов. Под общей ред. М.Л. Журавина и Н.К. Меньшикова. М., Академия, 2002, 444 с.  4-nazorat ishi kartoch- kalari.	4 s. Maktabda darsning tayyorgarlik va yakuniy qismini o'tishga tayyorgarlik. 4-nazorat ishi tayyorgarlik. Gimnastika ko'pkurashi bo'yicha mikrosinovga tay- yorgarlik. II bosqichdagi nazariy sinovga tayyorgarlik.	Darsning tay- yorgarlik va yakuniy qism- larini o'tish bo'yicha mikro-sinov. 4-nazorat ishi. Gimnastika ko'pkurashi bo'yicha mikro-sinov. Yakuniy sinov.

### **III bosqich talabalari uchun nazariy sinov savollari**

1. Jismoniy tarbiya o'qituvchisini tayyorlash uchun jismoniy tarbiya tizimida gimnastikaning o'rni va ahamiyati.
2. Gimnastikaning vazifalari, vositalari va uslubiy xususiyatlari.
3. Gimnastika turlarining qisqacha ta'rif (vazifalar, vositalar, mashg'ulot turlari).
4. Atamalarni yaratish qoidalari, atamalarning jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun ahamiyati, talablar va atamalar (4 ta misol).
5. Qayta saflanishda buyruq berish qoidasi (harakalda va turgan joyda 2 tadan misol).
6. Orani ochish va yaqinlashtirishda buyruq berish qoidasi (4 ta misol keltirish).
7. URM va ularning tasnifi. Majmuada URMning ketma-ketligi.
8. URMni bo'lib o'tish usuli texnologiyasi. Joyi, harakati, o'qituvchining buyrug'i.
9. URMni harakatda o'tish texnologiyasi. Joyi, harakati, o'qituvchining buyrug'i.
10. Saf mashqlarining darsdagi ahamiyati, ularning turlari va o'tishdagi talabları (har bir turlar bo'yicha misollar).
11. Gimnastika asboblarida mashqlar tasnifi. Siltanish mashqlari texnikasi asoslari.
12. Gimnastika asboblarida mashqlar tasnifi. Kuchga beriladigan mashqlar texnikasi asoslari.
13. Gimnastika mashqlarini o'rgatish jarayoni va tuzilishi (bosqichlar, uslublar, usullar, sharoitlar).
14. Buyumlar bilan mashq yozish qoidalari: to'p bilan, gimnastika o'rindig'ida, gimnastika devorida, juft bo'lib bajariladigan mashqlardan misollar.
15. Gimnastika mashqlarini o'rgatish texnologiyasi.
16. Darsning tayyorlov qismida yuklamalarni tartibga solish usullari va vositalarni taqsimlash.
17. Gimnastika darsining tayyorlov qismi tavsifi (vazifalar, vositalar, o'tish uslubiyoti, uslubiy usullar).
18. Gimnastika asboblaridagi mashqlarni yozish qoidasi.
19. O'qituvchining vazifasiga ko'ra, kamida 5-6 ta elementdan tashkil topgan asboblardagi mashqlardan birini afama bo'yicha yozish.
20. Oldinga o'mboloq oshishni o'rgatish texnikasi va texnologiyasi.
21. Orqaga o'mboloq oshishni o'rgatish texnikasi va texnologiyasi.
22. Eniga qo'yilgan otdan oyoqlarni bukib tayanib sakrashni o'rgatish texnikasi va texnologiyasi.

23. Sakrab cho'qqayish va kerishib sakrab tushishni (qizlar), uzunasiga qo'yilgan otdan oyoqlarni kerib sakrashni (o'smirlar) o'rgatish texnikasi va texnologiyasi.
24. Brevnoda har xil harakatlarni (qizlar), turnikda orqaga aylanishni (o'smirlar) o'rgatish texnikasi va texnologiyasi.
25. O'ng oyoqni kerib tayanib o'tirib oldinga aylanishni o'rgatish texnikasi va texnologiyasi.
26. Turli asboblarda osilishni o'rgatish texnikasi va texnologiyasi. Oddiy va aralash osilishlarga misollar.
27. Boshda va qo'lida tik turish texnikasi va texnologiyasi.
28. Yonga to'ntarilish (koleso)ni o'rgatish texnikasi va texnologiyasi.
29. Turnikda osilib tebranishni (o'smirlar), baland-past qo'shpoyada aralash osilish bilan tebranishni (qizlar) o'rgatish texnikasi va texnologiyasi.
30. Turnikda siltanib ko'tarilish (o'smirlar), brevno oxirida bir oyoqda depsinib, bir oyoqda siltanib kerishib sakrab tushish texnikasi va texnologiyasi.
31. Parallel qo'shpoyada oldinga siltanib ko'tarilish (o'smirlar), baland-past qo'shpoya pastki poyasida bir oyoq bilan depsinib, bir oyoqda siltanib to'ntarilib tayanishni (qizlar) o'rgatish texnikasi va texnologiyasi.
32. Parallel qo'shpoyada oyoqni kerib o'tirishdan oldinga o'mboloq oshishni (o'smirlar), baland-past qo'shpoyada tayanib burchak holatida burchak ushlab qo'nishni o'rgatish texnikasi va uslubiyoti.
33. Qo'llarda tik turishni o'rgatish texnikasi va uslubiyoti (o'smirlar, qizlar).
34. Dumalashni (3 ta turi) o'rgatish, texnikasi va uslubiyoti (o'smirlar, qizlar).

### **III bosqich talabalarining texnik tayyorgarligi bo'yicha sinov kombinatsiyalari (qizlar)**

**Yakkacho'p:**

- sakrab tayanib o'ng (chap) oyoqni siltab o'tkazib, chapga burilib oyoqlarni kerib kerishib o'tirish (ko'ndalang), qo'llar yonda;
- orqaga tayanib burchak ushlab o'tirish;
- oyoqlarni orqaga siltab, qo'llarni bukib tayanib yotish;
- tayanib yotish va ikkala oyoqda depsinib tayanib cho'qqayish;
- turib o'ng (chap) oyoqda muvozanat saqlash, ikkinchisi orqada, qo'llar yonda;
- oyoqlarni juftlashtirib, III holat, qo'llar belda;
- yakkacho'dan oxirigacha ikkita almash qadamlar;
- oldinga yoki orqaga siltanib ortga burilish;
- 4-6 ta qadam yarim cho'qqayib oyoq uchida yurish, qo'llar orqada;

- cho'qqayib o'tirib orqaga burilish, qo'llar yuqorida;
- tizzalarda tik turish, qo'llar yonda;
- bitta tizzada tayanib turib, ikkinchisida siltanib, qo'llarda tik turishdan yakkacho'pga yon bilan qo'nish.

Baland-past qo'shpoya:

- pastki poyada bukib osilib turishdan bir oyoqda depsinib va bittasida siltanib to'ntarilib pastki poyada tayanib turish;
- tayanib o'ng (chap) oyoqni o'tkazish;
- yuqorigi poyani chalishtirib ushlab, o'ng (chap) oyoqni o'tkazib burilish, pastki poyada osilib yotish;
  - orqaga siltanib va oyoqlarni oldinga bukib o'tkazib osilib yotish;
  - o'ng sonda o'tirib, chap qo'l yonda – orqaga tayanib burchak ushlab o'tirish;
  - 180° ga burilib sakrab tushish;
  - tayanib sakrash: ko'ndalang qo'yilgan otdan oyoqlarni kerib sakrash (balandligi 120 sm).

Erkin mashqlar:

D.h. – A.t.

1 – o'ng oyoqda oldinga bir qadam, chap oyoq uchida turish, qo'llar yuqorida;

2 – qo'llar bosh orqasida;

3-5 – o'ng oyoqda muvozanat saqlash, chap oyoq orqada, qo'llar yonda.

1 – oyoqlarni juftlashtirib;

2 – kerilib egilish;

3 – egilish.

1 – cho'qqayib tayanib o'tirish;

2-3 – oldinga o'mboloq oshish;

4 – qo'llarni bukib tayanib yotib o'ng oyoq orqada pastda.

1 – tayanib yotish;

2 – burilib orqaga tayanib yotish;

3 – o'tirish;

4 – orqa bilan yotib, bilaklarga tayanib oyoqlarni kerib bukish.

1-2 – "ko'priki";

3 – burilib tayanib cho'qqayib o'tirish;

4 – o'ngga (chapga) burilib turish, o'ng (chap) oyoq oldinda oyoq uchida, qo'llar yonda yoysimon harakatda yuqoriga;

5-6 – yonga to'ntarilish;

7 – cho'qqayib tayanib o'tirish;

8 – kuraklarda tik turish.

1 – ushlab turish;

2 – oldinga dumalab cho'qqayib tayanib o'tirish;



- 3 – orqaga o'mboloq oshish;
- 4 – turib, qo'llar belda;
- 5 – diagonal bo'ylab o'ngga bir qadamga burilish;
- 6 – o'ng oyoqqa tashlanish, chap qo'l oldinda, o'ng qo'l belda;
- 7 – chap oyoqni juftlashtirib asosiy turish.

### **III bosqich talabalari uchun texnik tayyorgarlik bo'yicha sinov kombinatsiyalari (o'smirlar)**

Erkin mashqlar:

D.h. – A.t.

1 – o'ng oyoqda bir qadam, chap oyoq orqada, oyoq uchida, qo'llar yuqorida;

2 – qo'llar bosh orqasida;

3-5 – o'ng oyoqda muvozanat saqlash, chap oyoq orqada, qo'llar yonda;

6 – chap oyoqni juftlashtirib, qo'llar aylantirib pastga;

7 – kerishib egilish;

8 – egilish.

1 – c ho'qqayib tayanib o'tirish;

2-3-oldinga o'mboloq oshish.

1 – qo'llarni bukib tayanib yotish;

2 – tayanib yotish;

3 – cho'qqayib tayanib o'tirish;

4 – boshda va qo'llarda tik turish.

1 – o'ng oyoqda cho'qqayib, chap oyoq yonda oyoq uchida;

2 – o'ng oyoqni to'g'irlab, oyoqlar keng kerilgan; qo'llar o'ngdan yoysimon yuqorida;

3 – o'ng oyoqni juftlashtirib, qo'llar yoysimon harakatda asosiy turishga;

4 – o'nga (chapga) burilib, o'ng (chap) oyoq oldinda oyoq uchida, qo'llar yoysimon yonga-yuqoriga;

5 – yonga to'ntarilish;

6 – cho'qqayib tayanib o'tirish;

8 – orqaga dumalab kuraklarda tik turish.

1 – kuraklarda tik turish;

2 – oldinga dumalab cho'qqayib tayanib o'tirish;

3-4 – orqaga o'mboloq oshish;

5 – turib qo'llar yuqorida;

6 – bir oyoqda sultanib, bir oyoqda depsinib qo'llarda tik turish;

7 – oldinga o'mboloq oshish;

8 – turib qo'llar yonda-yuqorida, kaftlar tashqariga qaragan.

Turnik:

- osilib tebranish;

- siltanib ko'tarilish;

- tayanib chap (o'ng) oyoqni o'tkazish;

- chap (o'ng) oyoqni kerib tayanib oldinga aylanish;

- tayanib o'ng (chap) oyoqni o'tkazib chapga (o'ngga)  $180^{\circ}$  ga burilish;

- orqaga siltanib va tayanib orqaga aylanish;

- yoysimon siltanish;

- orqaga siltanib sakrab tushish;

Tayanib sakrash: uzunasiga qo'yilgan otdan oyoqlarni bukib sakrash (balandligi – 135 sm).

Parallel qo'shpoya:

- bilaklarga tayanib turib orqaga siltanib ko'tarilib, tayanish;

- burchak ushlab tayanish (ushlab turish);

- oyoqlarni kerib o'tirish;

- yelkada tik turish;

- oldinga o'mboloq oshib oyoqlarni kerib o'tirish;

- tayanib tebranish;

- oldinga siltanib tashqarida chapga (o'ngga)  $180^{\circ}$ ga burilib sakrab tushish;

### III bosqich talabalari uchun o'quv amaliyoti vazifalari

Mavzu: "Gimnastika vositalari va ularni o'tish uslubiyoti"

Raqs kombinatsiyalarini atamalar bo'yicha o'rgatish va sanoqni amalgaloshirgan holda ko'rsatib berish.

**1-vazifa. Polka qadamlari bilan kombinatsiya.**

D.h. – qo'llar belda.

1 t. 1-2 – o'ng oyoqda polka qadamlari, qo'llar yonda;

3-4 – chap oyoqda polka qadamlari qo'llar belda;

2 t. 5-8 – 4 marta joyida sakrash;

3 t. 1-2 – o'ng oyoqda polka qadamlari, qo'llar yonda;

3-4 – chap oyoqda polka qadamlari, qo'llar belda;

4 t. 1-4 – 4 marta chapga burilib sakrab doiraga yuz bilan turish.

5 t. 1-4 – o'ngga uchta galop qadami, qo'llar yonda o'ng oyoqqa yarim cho'qqayib, chap oyoq oldinda oyoq uchida;

6 t. 1-3 – 3 marta oyoqlarni almashtirib sakrash, qo'llar belda;

4 – o'ng oyoqni juftlashtirish;

7 t. 1-4 – chapga 3 ta galop yonda, chap oyoqqa yarim cho'qqayishni yakunlab, o'ng oyoq oldinda oyoq uchida;

8 t. 1-3 –  $360^{\circ}$ ga burilib 3 marta oyoqlarni almashtirib sakrash;

4 – chap oyoqni juftlashtirish;

9-16 t – shuning o'zi chap bilan.

## **2-vazifa. Vals qadamlari bilan kombinatsiya.**

D.h. – oyoq uchida turib, qo'llar yonda;

1 t. 1-3 – o'ngga vals qadamlari;

2 t. 1-3 – chapga vals qadamlari;

3 t-1 t 1-3;

4 t. 1-3 – chapga bir qadam tashlab, 360° ga burilish, qo'llarni yoysimon harakat bilan pastga;

5 t.-2 t. – 1-3.

6 t. 1-3 – chapga bir qadam bilan 360° ga burilish, qo'llarni yoysimon harakat bilan pastga;

7 t. 1-3 – o'ng oyoqda vals qadami, chap qo'l yoysimon harakat bilan pastga;

8 t. 1-3 – chap oyoqda vals qadami, o'ng qo'l yoysimon harakat bilan pastga;

9 t. 1-3 – o'ng oyoqda, o'ngga 90° burilib vals qadami;

10 t. 1-3 – chap oyoqda o'ngga 90°ga burilib orqaga vals qadami;

11 t. 1-3 – o'ng oyoqda o'ngga 90° burilib vals qadami;

12 t. 1-3 – chap oyoqda o'ngga 90° burilib vals qadami;

13 t. 1-3 – o'ng oyoqda vals qadami;

14 t. 1-3 – chap oyoqda orqaga vals qadami;

15 t. 1-3 – o'ng oyoqda o'ngga 180° ga burilib vals qadami;

16 t. 1-3 – chap oyoqda o'ngga 180° ga burilish, orqaga vals qadami.

## **3-vazifa. Ruscha raqs qadami bilan kombinatsiya.**

D.h. – qo'llar belda.

1 t. 1-4 – o'ng oyoqda 3 ruscha qadam, qo'llar yonda;

2 t. 1-4 – chap oyoqda 3 ruscha qadam, qo'llar belda;

3-4 t. 1-8 – o'ngga 360° ga burilib tashlanish.

5 t. 1-2 – o'ng oyoqda "kovo'ryalochka".

3-4 – 4 marta oyoq tepib chapak chalish:

6 t. 1 – cho'qqayib o'tirish, qo'llar tizzada;

2 – sakrab o'ng oyoqda turib, chap oyoq yonda tovonda, qo'llar yonda;

3 – 1;

4 – D.h;

7 t. 1-4 – o'ng oyoqda "matalochka";

8 t. 1-4 – oyoqlarni bukib sakrash bilan "argoncha", qo'llar yuqorida va dastlabki holat.

9-16 t. 1-4 – oyoqlarni bukib sakrash bilan "argoncha", qo'llar yonda va dastlabki holat. Shuning o'zi chap oyoq bilan.

## **Mavzu: “URM va ularni o’tish uslubiyoti”**

### **1-vazifa.**

Buyumlar bilan URM majmuasini ishlab chiqish va bo’lib o’tish usuli bilan o’tkazish:

I variant – to’p bilan URM.

II variant – gimnastika tayoqchasi bilan URM.

III variant – gardish bilan URM.

IV variant – gantellar bilan URM.

### **2-vazifa.**

Konspekt ishlab chiqish va uzliksiz usulda 4 ta mashq o’tish.

I variant:

1) tortilish uchun mashq;

2) katta mushak guruhlari uchun mashq;

3) qo’llar uchun mashq;

4) gavda uchun mashqlar.

II variant:

1) gavda mushaklari uchun mashq;

2) umumiylar etuvchi mashq;

3) umumiylar (antagonist);

4) oyoq mushaklari uchun.

III variant.

1) umumiylar etuvchi mashq;

2) oyoq mushaklari uchun mashq;

3) cho’zilish uchun mashq;

4) siltanishlar.

IV variant.

1) oyoq mushaklari uchun mashq;

2) cho’zilish uchun mashq;

3) siltanishlar;

4) sakrashlar.

## **Mavzu: “Gimnastika mashqlari texnikasining umumiylar, o’rgatish uslubiyoti va texnologiyasi”.**

### **1-vazifa.**

Gimnastika elementlarini o’rgatish texnologiyasi konspektini ishlab chiqish.

1 variant – oldinga o’mboloq oshish.

2 variant – orqaga o’mboloq oshish.

3 variant – uzun o’mboloq oshish.

4 variant – qo’llarda tik turish.

5 variant – boshda va qo’llarda tik turish.



- 6 variant – qo'llarda tik turib oldinga o'mboloq oshish.  
7 variant – yonga to'ntarilish ("koleso").  
8 variant – aylanma dumalash.  
9 variant – qo'nish fazasi.  
10 variant – yugurib kelish va ko'prikka sakrab chiqish fazasi.  
11 variant – qo'l bilan itarilish fazasi.  
12 variant – sakrab tayanib cho'qqayib o'tirish va kerishib sakrab tushish.  
13 variant – oyoqlarni bukib sakrash (a).  
14 variant – oyoqlarni kerib sakrash (a).  
15 variant – uzunasiga qo'yilgan otdan oyoqlarni kerib sakrash.  
16 variant – uzunasiga qo'yilgan otdan oyoqlarni bukib sakrash.  
17 variant – 90° burilib yon bilan sakrash.  
18 variant – turnikda tebranish.  
19 variant – siltanib ko'tarilish.  
20 variant – o'ng (chap) oyoqni oldinga o'tkazib aylanish.  
21 variant – orqaga tayanib aylanish.  
22 variant – tayanib o'ng (chap) oyoqni o'tkazish.  
23 variant – yoysimon siltanish.  
24 variant – orqaga siltanib sakrab tushish.  
25 variant – parallel qo'shpoyada tayanishlar, tayanib harakatlanish.  
26 variant – tayanib tebranish.  
27 variant – orqaga siltanib ko'tarilish.  
28 variant – yelkada tik turish.  
29 variant – oldinga o'mboloq oshib oyoqlarni kerib o'tirish.  
30 variant – oldinga siltanib ko'tarilish.  
31 variant – orqaga siltanib sakrab tushish.  
32 variant – oldinga siltanib 180° ga burilib sakrab tushish.  
33 variant – baland-past qo'shpoyada osilish va tebranish turlari.  
34 variant – cho'qqayib o'tirib osilishdan siltanib yuqorigi poyaga  
to'ntarilib tayanish.  
35 variant – bukilib tebranish.  
36 variant – burchak ushlab o'tirishdan 180° ga burilib sakrab tushish.  
37 variant – yuqorigi poyada tayanib pastki poyaga tushib osilib yotish.  
38 variant – brevnoda harakatlanish turlari.  
39 variant – brevnoda sakrashlar, irg'ishlar.  
40 variant – o'ng (chap) tizzada tik turib tayanishdan orqaga siltanib  
sakrab tushish.  
41 variant – oldinga (orqaga) siltanib burilish.

## **Mavzu: "Gimnastika vositalari va ularni o'tish uslubiyoti"**

**2-vazifa.** Maktab darsining tayyorlov qismi uchun konsept konspekt yozish va o'tkazish.

I variant:

- 1) yonma-yon va ketma-ket qatorni o'rgatish;
- 2) juftlama qadamni bajarishda to'g'ri qad-qomatni shakllantirish;
- 3) to'p bilan URMni bajarishda harakat koordinatsiyasini rivojlantirish.

II variant:

- 1) bir qatordan ikki qatorga saflanish va qayta saflanishni o'rgatish;
- 2) juftlama qadam texnikasini takomillashtirish;
- 3) gimnastika tayoqchasi bilan URM bajarishda to'g'ri qad-qomatni shakllantirish.

III variant:

- 1) bir qatordan ikki qatorga saflanish va qayta saflanishni takomillashtirish;
- 2) juftlama qadam texnikasini o'rgatish;
- 3) doirada URM bajarishda jamoatchilik hissini tarbiyalash.

IV variant:

- 1) bir qatordan uch qatorga qirra bo'lib saflanish va qayta saflanish;
- 2) raqs kombinatsiyasida juftlama qadam texnikasini takomillashtirish;
- 3) gardish bilan URM bajarganda predmetni his qilish va joyini mo'ljalga olishni rivojlantirish.

V variant:

- 1) bir qatordan uch qatorga qirra bo'lib saflanish va qayta saflanishni takomillashtirish;
- 2) galop qadamini o'rgatish;
- 3) burilishlar bilan URM bajarganda to'g'ri qad-qomatni shakllantirish (7-8 hisobda).

VI variant:

- 1) harakatda bir ketma-ket qatordan burilib, to'rt ketma-ket qatorga saflanish va qayta saflanishni o'rgatish;
- 2) polka qadamlarini bajarganda sur'atni his qilishni tarbiyalash;
- 3) gantellar bilan URM bajarganda harakat koordinatsiyasini rivojlantirish.

VII variant:

- 1) harakatda bir ketma-ket qatordan burilib, to'rt ketma-ket qatorga saflanish va qayta saflanishni takomillashtirish;
- 2) raqs kombinatsiyasida polka qadamlari texnikasini takomillashtirish;
- 3) qarsak bilan URM bajarganda sur'atni his qilishni rivojlantirish.

VIII variant:

- 1) saf usullarini o'yin orqali bajarganda diqqatni rivojlantirishga yordam berish;

2) bir ketma-ket qatordan bo'linish va biriktirish orqali to'rt ketma-ket qatorga saflanish va qayta saflanishni takomillashtirish;

3) harakatda URMlarni bajarishda fazo-makon mo'ljalini takomillashtirish.

**X variant:**

1) joyida saflanish va qayta saflanish texnikasini takomillashtirish va o'yin usulida jamoa bilimini tekshirish;

2) bir ketma-ket qatorda bo'linish va biriktirish orqali to'rt ketma-ket qatorga saflanish va qayta saflanishni takomillashtirish;

3) ritmik gimnastika majmuasini bajarishda sur'atni his qilishni tarbiyalash.

**X variant:**

1) figurali harakatlanish va turli yurish, yugurish texnikasini takomillashtirish;

2) ruscha raqs texnikasini o'rgatish;

3) juft bo'lib URM bajarishda do'stlik hissini tarbiyalash.

**3-vazifa.**

O'quv guruqlarida darsning yakuniy qismi mazmunini ishlab chiqish, yozish va o'tish.

**I variant:**

1) muvozanat saqlash mashqlarini bajarishda to'g'ri qad-qomatni shakllantirish;

2) saf usullarini bajarishda intizomlilikni tarbiyalash.

**II variant:**

1) vaqt oriyentatsiyasini rivojlantirishga yordam berish.

### **III bosqich talabalari uchun nazorat ishi**

#### **1. Nazorat ishi.**

**Mavzu: "URM va uni o'tish uslubiyoti"**

**I variant:**

1) URMlarni bajarishda shug'ullanuvchilar uchun yuklamani oshirish usullarini sanab o'tish;

2) URMlar qaysi mushak guruhiga qaratilgan?

3) Saf mashqlarini o'tishda o'qituvchiga qanday talablar qo'yiladi?



II variant:

- 1) majmuali xarakterga ega bo'lgan URMlarda harakatni atamalar bo'yicha yozish qoidasi;
- 2) URMlar qaysi mushak guruhiga qaratilgan?
- 3) saf mashqlarini bajarishda shug'ullanuvchilarga qanday talablar qo'yiladi?



## 2. Nazorat ishi.

Mavzu: "Saf mashqlari"

I variant:

- 1) saf mashqlarini o'tishda o'qituvchiga qanday talablar qo'yiladi?
- 2) harakatda qayta saflanish uchun saflanish buyrug'i qoidasi.
- 3) bir qatordan uch qatorga saflanish va qayta saflanish uchun o'qituvchi qanday buyruq berishi kerak?

II variant:

- 1) saf mashqlarini bajarishda shug'ullanuvchilarga qanday talablar qo'yiladi?
- 2) orani ochish va yaqinlashtirish uchun saflanish buyrug'i qoidasi;
- 3) qo'l holatlari va harakat usullarini o'zgartirish uchun o'qituvchi qanday buyruq berishi kerak?

III variant:


- 1) saf mashqlaridan foydalanilganda qanday vazifalarni hal qiladi?
- 2) joydan-joyga ko'chish uchun buyruq berish qoidasi;
- 3) harakatda burilib bir ketma-ket qatordan to'rt ketma-ket qatorga saflanish uchun qanday buyruq beriladi?

## 3. Nazorat ishi.

Mavzu: "Gimnastika atamalari"

I variant:

- 1) parallel qo'shpoyada 5 ta elementdan iborat kombinatsiyani atamalar bo'yicha yozish;
- 2) mashqlarni atamalar bo'yicha yozish va anatomik yo'nalishini aniqlash (asosan ishlaydigan mushaklarni ko'rsatish).



**II variant:**

1) mashqni chizma yozuv bilan ifodalash va anatomik yo'nalishini aniqlash (asosan ishlaydigan mushaklarni ko'rsatish).

D.h. – A.t.

1 – kerishib egilish, qo'llar yonda;

2 – tayanib cho'qqayib o'tirish;

3 – qo'llar yuqorida;

4 – D.h.

2) baland-past qo'shpoyada 5 ta elementdan iborat kombinatsiyani atamalar bo'yicha yozish.

**4. Nazorat ishi.**

**Mavzu: "Gimnastika vositalari va uni o'tish uslubiyoti"**

**I variant:**

1) harakatda burilib bir ketma-ket qatordan uch ketma-ket qatorga saflanish uchun qanday buyruq beriladi?

2) saf buyruqlari qanday qismlardan iborat?

3) guruhni yonma-yon qatorga saflash uchun qanday buyruq berilishini aytинг.

**II variant:**

1) bir qatordan uch qatorga qirra bo'lib saflanish uchun qanday buyruq beriladi?

2) saf mashqlarini o'tishda o'qituvchiga qanday talablar qo'yiladi?

3) qadam chastotasini o'zgartiruvchi buyruqlarni sanab o'ting.

**III variant:**

1) juftlama qadam bilan orani ochish uchun qanday buyruq beriladi?

2) zalning nuqtasini aytинг;

3) safda dastlabki holatni qabul qilish uchun beriladigan buyruqni aytинг.

**Amaliy vazifalarni bajarish namunalarini  
Anatomik yo'nalish bo'yicha URM majmuasi.**

Yo'nalishi	Mazmuni	Me'yori	Tashkiliy-uslubiy ko'rsatma
1. Tortilish uchun	<b>Gimnastika o'rindig'ida URM majmuasi:</b> 1 – o'rindiqqa chap oyoq bilan qadam qo'yib, qo'llar oldinda; 2 – o'ng oyoqni juftlashtirib, oyoq uchida turish, qo'llar yuqorida; 3 – chap oyoq bilan orqaga bir qadam, qo'llar oldinda; 4 – o'ng oyoqni juftlashtirib, d.h. 5-8 – shuning o'zi o'ng oyoq bilan.	6-8 marta	Bo'lib o'tish usulida, frontal. Tasavvur hosil qilish usuli: ko'rsatib berish, tushuntirish. Qadam tashlaganda egilmasdan bajarish. Yuqoriga tortilish, qo'llarga qarash. Sur'at – sekin.
2. Oyoq mu-shaklari uchun	D.h. – oyoqlar kerilgan, qo'llar belda, o'rindiq oyoqlar orasida: 1 – o'rindiqqa o'tirish; 2 – d.h.; 3 – chap oyoq bilan o'rindiqqa qadam qo'yish; 4 – o'ng oyoqni juftlashtirish; 5 – cho'qqayib o'tirish, qo'llar oldinda; 6 – tik turib qo'llar belda; 7 – o'rindiqdan sakrab tushib, yarim cho'qqayib oyoqlarni kerib turish; 8 – d.h.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Egilmasdan o'tirish, qadam qo'yganda to'g'ri qad-qamotni saqlash. O'rindiqdan yumshoq, amortizatsiya bilan sakrab tushish. Sur'at – o'rtacha.
3. Qo'l mu-shaklari uchun	D.h. – orqaga tayanib yotish, qo'llar o'rindiqda: 1 – orqaga tayanib yotib qo'llarni bukish; 2 – d.h.; 3-4 – chapga burilib tayanib yotish; 5 – qo'llarni bukib tayanib yotish; 6 – tayanib yotish; 7-8 – d.h.; 9-16 – boshqa tomonga.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha, orqaga tayanib yotishda bukilmasdan yotish, boshni egmasdan, qo'llarni to'g'ri burchak bo'yicha bukish. Burilishni to'g'ri bajarish. Sur'at – o'rtacha.

64

4. Gavdaning to'g'ri mushaklari uchun	D.h. – gimnastika o'rindig'iga ko'ndalang oyoqlar kerib turib, qo'llar belda. 1-3 – uch marta purjinasmimon egilish; 4 – d.h.; 5 – orqaga egilish; 6 – d.h.; 7 – orqaga egilib qo'llar bosh orqasida; 8 – d.h.	6-8 marta	Ko'rsatib va tushuntirib berish. Egilishni bajarganda oyoqlarni bukmasdan, orqaga qarab, oyoqlarni bukmasdan bajarish. Sur'at – sekin.
5. Gavdaning ko'ndalang mushaklari uchun	D.h. – o'rindiqqa chap yon bilan turish. 1 – chap oyoq bilan skameykaga qadam qo'yib, qo'llar yuqorida; 2-3 – ikki marta chapga prujinasimon egilish, qo'llar bosh orqasida; 4 – gavdani o'ngga burib qo'llar yonda; 5 – o'ng oyoqda turib, chap oyoq o'rindiqda, qo'llar yuqorida; 6 – chap oyoqni juftlashtirib d.h.; 7-8 – ortga burilish; 9-16 – shuning o'zi o'ng tomon bilan.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Egilishni yonga aniq, bukilmasdan bajarish. Kuraklar bir-biriga yaqin, qorinni tortib, oyoqlarni bukmasdan bajarish. Gavdani burishda tosni burmasdan bajarish. Burilgan tomonga qarash. Sur'at – o'rtacha.
6. Barcha mu-shak guruhlari uchun	D.h. – o'rindiqda ko'ndalang bo'lib tayanib cho'qqayib o'tirish. 1 – chap oyoq yuqorida oyoq uchida; 2 – tayanib yotish; 3 – qo'llarni bukib tayanib yotib, o'ng oyoqni orqaga bukish; 4 – tayanib yotish; 5 – qo'llarni bukib tayanib yotib, chap oyoqni orqaga bukish; 6 – tayanib yotish. 7 – chap oyoqni o'rindiqqa qo'yib, chap oyoqda tayanib o'tirish, o'ng oyoq orqada oyoq uchida; 8 – o'rindiqda tayanib cho'qqayib o'tirish.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Tayanib cho'qqayib o'tirganda og'irlik qo'llar va oyoqlarga baravar taqsimlangan. Chap oyoqni orqaga qo'yilganda tayanch oyoqni sekin yozish. Tayanib yotishda tana to'g'ri, boshni egmasdan, qo'llarni 90° dan kam bukmasdan, oyoqlarni kermasdan bajarish. Sur'at – o'rtacha.

7. Qorin pressi mushaklari uchun	D.h. – o'rindiqqa ko'ndalang o'tirish, qo'llar bosh orqasida. 1 – oyoqlarni bukib o'tirish, qo'llar yonda; 2 – orqaga tayanib burchak ushlab o'tirish; 3 – oyoqlarni bukib o'tirish, qo'llar yonda; 4 – d.h.	8-10 marta	Ko'rsatib va tushuntirib berish. O'rindiqning chekkasiga tayauish, oyoqlarni gavdaga nisbatan 90° ga ko'tarish. Sur'at – o'rtacha.
8. Orqa mushaklar uchun	D.h. – orqaga tayanib o'tirish. 1 – o'ng oyoqni oldinga bukib orqaga tayanib yotish; 2 – d.h.; 3-4 – boshqasi bilan; 5 – orqaga tayanib yotib o'ng oyoqni bukish; 6 – orqaga tayanib yotib oyoqlarni bukish; 7 – orqaga tayanib o'tirib oyoqlarni bukish; 8 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Orqaga tayanib yotganda tanani va boshni to'g'ri ushlash. Orqaga bukilganda va oyoqni polga qo'yganda tosni iloji boricha yuqiroq ko'tarish. Orqaga tayanib yotganda oyoqlarni bukib, bo'ksa va gavda bir chiziqda bo'lishini ta'minlash. Sur'at – o'rtacha.
9. Cho'ziluv-chanlik uchun	D.h. – orqaga tayanib oyoqlarni kerib o'tirib, oyoqlar o'rindiqda. 1 – qo'llar yuqorida; 2 – oldinga egilib qo'llar yonda; 3 – oldinga egilib o'rindiqning chekkasini ushlash; 4 – d.h.	6-8 marta	Ko'rsatib berish: qo'llar to'g'ri, yuqoriga tortilish, qo'llarga qarash. Egilganda oyoqlarni bukmasdan o'rindiqqa qarab bajarish. O'rindiqni ushlaganda bukrilmasdan bajarish. Sur'at – o'rtacha.
10. Siltanishlar	D.h. – o'rindiqqa yuz bilan turib qo'llar yuqorida. 1 – egilib o'rindiqqa tayanib chap oyoqni orqaga siltash; 2 – d.h.; 3-4 – boshqasi bilan.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Tayanganda qo'llarni to'g'ri tutish. Siltanishni oyoqlarni bukmasdan to'g'ri bajarish. Oldinga qarash. Sur'at – o'rtacha.
11. Sakrashlar	D.h. – o'rindiqqa yuz bilan turib qo'llar belda. 1 – o'ng oyoqda sakrab chap oyoq o'rindiqda; 2 – sakrab oyoqlarni almashtirish; 3 – chap oyoqni juftlashtirib o'rindiq ustida turish; 4 – o'rindiqdan sakrab tushib d.h. Turgan joyida yurish.	8-10 marta	Ko'rsatib berish. Balandroq, oldinga egilmasdan sakrash. Qorinni tortib, kuraklar yaqinlashtirilgan. O'rtacha sur'atdan asta-sekin tezlash-tirish. Buyruq: "Joyida qadam bos", "To'xta".

66

12. Nafasni rostlash uchun	D.h. – ko'ndalang qo'yilgan o'rindiqda turib, qo'llar bosh orqasida. 1 – o'rindiqdan o'ng oyoqda qadam tashlab, o'ng qo'l yonda; 2 – shuning o'zi chap oyoqda; 3 – oyoqlarni kerib oyoq uchida turish qo'llar yuqorida; 4 – oyoqlarni kerib turib qo'llar bosh orqasida; 5 – o'ng oyoq o'rindiqda, o'ng qo'l yonda; 6 – chap oyoq o'rindiqda, chap qo'l yonda; 7 – o'rindiqda oyoq uchida turib qo'llar yuqorida; 8 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. To'g'ri qad-qomatni saqlagan holda bajarish. Oyoq uchida yuqoriga tortilib, qo'llarga qarash. Qadam qo'yishni bajarganda boshni oldinga egmasdan bajarish. Sur'at – sekin.
1. Tortilish uchun	<b>Harakatda URM majmuasi:</b> D.h. – A.t. 1 – o'ng oyoqda bir qadam, qo'llar yonda; 2 – chap oyoqni juftlashtirib oyoq uchida turish, qo'llar yuqorida; 3 – o'ng oyoqda bir qadam, qo'llar oldinda; 4 – chap oyoqni juftlashtirib, d.h.; 5-8 – boshqasi bilan.	6-8 marta	Bo'lib o'tish usuli bilan. Tasavvur hosil qilish usuli. Ko'rsatib berish va tushuntirish, orqa to'g'ri qo'llarga qarash. Sur'at – sekin. Har bir mashq yakunida "Oddiy yurishga o'ting!", "To'xta" buyrug'i beriladi.
2. Oyoqning katta mushak guruhi uchun	D.h. – qo'llar belda. 1 – o'ng oyoqqa tashlanish qo'llar yonda; 2 – chap oyoqni juftlashtirib, d.h.; 3 – chap oyoqqa tashlanish, qo'llar yonda; 4 – o'ng oyoqni juftlashtirib d.h.; 5 – chapga burilib, o'ng oyoqda yonda tashlanish, qo'llar yuqorida; 6 – chap oyoqni juftlashtirib d.h.; 7 – o'ngga burilib chap oyoqda yonga tashlanish, qo'llar yuqorida; 8 – o'ng oyoqni juftlashtirib d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Tashlanganda orqadagi oyoq to'g'ri, oyoq kaftining ichki tomonida. Qo'llar to'g'ri, kuraklar to'g'ri yaqinlashtirilgan. Sur'at – o'rtacha.

67

3. Qo'llar va yelka kamari uchun	D.h. – A.t. 1-4 – chap oyoqda to'rt qadam yurib to'rt marta qo'llarni oldinga aylantirish; 5 – chap oyoqda bir qadam, qo'llar yuqorida jipslashgan, kaftlar yuqoriga qaragan; 6-7 – o'ng oyoqda ikki qadam, qo'llarni orqaga harakatlanirish. 8 – o'ng oyoqni juftlashtirib d.h.	6-8 marta	Ko'rsatib va tushuntirib berish. Qo'llarni bukmasdan bajarish eng katta amplitudada aylantirish bukilmasdan bajarish. Sur'at – o'rtacha.
4. Gavda mu-shaklari uchun	D.h. – qo'llar belda. 1 – o'ng oyoqda bir qadam kerishib egilish, qo'llar yonda; 2 – chap oyoqda bir qadam kerishib egilish; 3 – o'ng oyoqda bir qadam kerigib egilish, qo'llar yonda; 4 – d.h. 5-8 – shuning o'zi, chap oyoqda.	4-6 marta	Ko'rsatib berish. Oyoqlarni bukmasdan, pastroq egilish. Qo'llar yonda bo'lganda kaftlar pastga qaragan. Sur'at – o'rtacha.
5. Gavdaning yon tomoni uchun	D.h. – qo'llar belda. 1 – chapga burilib, o'ng oyoq yonga o'ngga egilib, chap qo'l yuqorida; 2 – d.h.; 3 – o'ngga burilib, chap oyoq yonga chapga egilib, o'ng qo'l yuqorida; 4 – d.h.; 5 – o'ngga burilib, chap oyoq oldinda, qo'llar yonda; 6 – d.h.; 7 – chapga burilib, o'ng oyoq oldinda, qo'llar yonda; 8 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Pastroq egilish. Qo'llarni yuqoriga ko'targanda boshni tekkizib, to'g'ri ushlash. Sur'at – o'rtacha.

68

6. Barcha mu-shak guruhlari uchun	D.h. – A.t. 1 – oldinga egilish; 2-4 – qo'llarni navbatma-navbat qo'yib tayanib yotish; 3 – qo'llarni bukib tayanib yotish; 4 – tayanib yotish; 5-3; 6 – tayanib yotish; 7 – sakrab tayanib cho'qqayib o'tirish; 8 – d.h.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Qo'llarni yaqinroq qo'yish. Oyoqlarni bukmasdan bajarish. Qo'llarni bukib tayanib yotganda polga yotib olmasdan bajarish. Sur'at – o'rtacha.
7. Qorin pressi uchun	D.h. – orqaga tayanib o'tirish. 1 – burchak ushlab o'tirish; 2 – burchak ushlab oyoqlarni kerib o'tirish; 3 – burchak ushlab o'tirish; 4 – orqaga tayanib oyoqlarni bukib o'tirish; 5 – orqaga tayanib oyoqlarni bukib yotish; 6-7 – orqaga tayanib oyoqlarni bukib yotib harakatlanish; 8 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Oyoqlarni bukmasdan, orqaga egilmasdan bajarish. Orqaga tayanib yotishda tosni balandroq ko'tarish. Sur'at – o'rtacha.
8. Orqa mu-shaklar uchun	D.h. – qorin bilan yotib qo'llar yuqorida. 1 – kerishish; 2 – qo'llar yonda; 3 – qo'llarni bukib tayanish; 4 – tayanib yotish; 5-7 – tayanib yotib navbatma-navbat qo'llarni qo'yib harakatlanish; 8 – d.h.	4-6 marta	Bo'limlar bo'yicha. Ko'proq kerishish. Oyoqlarni bukmasdan bajarish. Sur'at – o'rtacha.

69

9. Sorning orqa yuqori qismida-gi mushaklarni cho'zish uchun	D.h. – oyoqlarni kerib o'tirish, qo'llar oldinda. 1 – oldinga egilish; 2 – oyoqlarni birlashtirib egilish; 3-4 – orqaga dumalash; 5 – dumalab orqaga tayanib oyoqlarni bukib o'tirish; 6-7 – oldinga harakatlanish; 8 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Oyoqlarni bukmasdan, chuqurroq egilish. Sur'at – sekin.
10. Siltanishlar	D.h. – chap oyoq kerilgan, qo'llar yonda. 1 – o'ng oyoqni siltab, oyoq ostida qarsak; 2 – o'ng oyoqda bir qadam qo'llar yonda; 3 – chap oyoqni siltab, oyoq ostida qarsak; 4 – d.h.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Oyoqlarni balandroq ko'tarish. Oyoqlar to'g'ri. Oldinga egilmasdan bajarish. Sur'at – o'rtacha.
11. Sakrashlar	D.h. – qo'llar belda. 1 – oyoqlarni kerib, qo'llar yonda oldinga harakatlanib sakrash.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Sakraganda oldinga harakatlanish. Balandroqqa sakrab, oyoqlarni bukmasdan bajarish. Sur'at – tez.
12. Nafas rost-lash uchun	D.h. – A.t. 1-3 – o'ng oyoqda ikki qadam, qo'llarni tashqaridan yuqoriga yoysimon harakatlantirish; 2-4 – chap oyoqda ikki qadam, qo'llarni ichkaridan pastga yoysimon harakatlantirib, d.h.	4-6 marta	Ko'rsatish va tushuntirib berish. Mashqni sekin, oldinga harakatlanib bajarish. "1-2" da nafas olish, "3-4" da nafas chiqarish.

70

1. <i>Tortilish uchun</i>	<b>Gimnastika tayoqchasida URM majmuasi:</b> D.h. – tayoqcha pastda. 1 – o'ng oyoq orqada oyoq uchida, tayoqcha yuqorida; 2 – d.h.; 3 – chap oyoq orqada oyoq uchida, tayoqcha yuqorida; 4 – d.h.; 5 – oyoq uchida turib, tayoqcha yuqorida; 6 – tayoqcha bosh orqasida; 7 – oyoq uchida turib, tayoqcha yuqorida; 8 – d.h.	4-6 marta	Bo'lib o'tish usuli, frontal. Tasavvurni hosil qilish usuli: ko'rsatish va tushuntirib berish. Tortilganda tayoqchaga qarash. Qorin tortib, kuraklarni bir-biriga yaqinlashtirish. Boshni egmasdan. Sur'at – sekin.
2. Oyoq mu-shaklari uchun	D.h. – tayoqcha oldinda. 1 – o'ngga tashlanish, tayoqcha oldinda vertikal, o'ng qo'l yuqorida; 2 – d.h.; 3-4 – shuning o'zi boshqa tomonga; 5 – yarim cho'qqayish, tayoqcha yuqorida; 6 – d.h.; 7 – cho'qqayib o'tirish, tayoqcha yuqorida; 8 – d.h.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Oldinga egilmasdan, qo'llarni bukmasdan bajarish. Tayoqchani yo'naliш bo'yicha to'g'ri ushлаsh. Cho'qqayishda egilmasdan, qo'llarni bukmasdan bajarish. Sur'at – o'rtacha,
3. Qo'l mu-shaklari uchun	D.h. – tayoqcha pastda. 1-2 – tayoqchani chapdan aylantirish; 3-4 – tayoqchani o'ngdan aylantirish; 5 – tayoqcha polda vertikal; 6 – kerishib egilish; 7 – tayoqcha polda vertikal; 8 – d.h.	4-6 marta	Bo'limlar bo'yicha. Yuz tomondan aniq aylantirish. Oldinga egilganda orqa tekis. Sur'at – o'rtacha.

4. Gav.'a mushaklari uchun	D.h. – oyoqlar kerilgan tayoqcha oldinda. 1 – oldinga egilish; 2 – kerishib egilish, tayoqcha polda vertikal, o'ng qo'l yuqoridan; 3 – shuning o'zi, chap qo'l yuqoridan; 4 – d.h.; 5 – gavdani o'ngga burib, tayoqcha o'ngda; 6 – d.h.; 7 – gavdani chapga burib, tayoqcha chapda; 8 – d.h.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Oyoqlarni bukmasdan, kerishib egilganda yuqoriga qarash. Burilganda oyoqlarni bukmasdan bajarish. Sur'at – sekin.
5. Gavdaning to'g'ri mushaklari uchun	D.h. – tayoqcha yelkada. 1 – kerishib egilib, tayoqcha yuqorida; 2 – egilib, tayoqchani polga qo'yish; 3 – qo'llarni orqaga harakatlantirib egilish; 4 – egilib tayoqchani olish; 5 – kerishib egilib, tayoqcha yuqorida; 6 – tayoqcha yelkada; 7 – orqaga yarim egilish; 8 – d.h.	6-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. Kerishib egilishda tayoqchaga qarash, qo'llar to'g'ri. Oyoqlarni bukmasdan, tayoqchani otmasdan bajarish. Orqaga egilganda orqaga qarab oyoqlarni bukmasdan bajarish. Sur'at – sekin.
6. Gavdaning ko'ndalang mushaklari uchun	D.h. – oyoqlarni kerib o'tirish, tayoqcha yuqorida. 1 – o'ngga egilish, tayoqcha o'ngdan polga vertikal; 2 – gavdani o'ngga burib, tayoqcha ko'krak oldida; 3 – gavdani chapga burib, tayoqcha oldinda; 4 – d.h.; 5-8 – boshqa tomonga;	4-6 marta	Ko'rsatib berish va tushuntirish. Yonga aniq egilish, qo'llarni bukmasdan, boshni egmasdan bajarish. Burilganda orqa to'g'ri, oyoqlarni bukmasdan, oldinga qarash. Sur'at – sekin.
7. Barcha mushak guruhlari uchun	D.h. – cho'qqayib o'tirib, tayoqcha yelkada. 1 – o'ng oyoq yonda, oyoqlarni kerib turib tayoqcha yuqorida; 2-3 – gavdani o'ngga aylantirish; 4 – d.h.; 5-8 – boshqa tomonga.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Qorinni tortib, orqa to'g'ri, boshni egmasdan bajarishi. Aylantirishni oyoqlarni, qo'llarni bukmasdan bajarish. Sur'at – sekin.

8. Qorin pressi mushaklari uchun	D.h. – oyoqlarni bukib o'tirib, tayoqcha pastda oyoq ostida. 1 – burchak ushlab o'tirish, tayoqcha oldinda; 2 – oyoqlarni tayoqchadan o'tkazib, bukib o'tirish, tayoqcha yuqorida; 3 – yotib, tayoqcha yuqorida; 4 – oyoqlarni bukib o'tirib, tayoqcha oldinda; . 5 – oyoqlarni kerib o'tirib, tayoqcha ko'krak oldida; 6 – oyoqlarni bukib o'tirib, tayoqcha yuqorida; 7 – tayoqcha oldinda, tayoqcha ustidan oyoqlarni yozib burchak ushlab o'tirish; 8 – d.h.	4-8 marta	Bo'limlar bo'yicha. O'tirganda orqa tekis. Oyoqlarni bukmasdan ko'tarish. Boshni egmasdan bajarish. Oyoqlarni tayoqchadan o'tkazganda tekkizmasdan bajarish. Orqa bilan yotganda belni polga tekkizish. 6 hisobda tayoqcha bilan yuqoriga tortilish. Sur'at – o'rtacha.
9. Orqa mu shaklar uchun	D.h. – qorinda yotib tayoqcha yuqorida. 1 – kerishib, tayoqcha bosh orqasida; 2 – ushlab turish; 3-1; 4 – qorinda yotib, tayoqcha polda o'z oldida; 5-6 – tayoqchani o'ziga dumalatib odininga egilish; 7 – tayoqchani teskari yo'nalishda dumalatish; 8 – d.h.	4-6 marta	Ko'rsatib berish. Kerishganda oyoqlarni bukmasdan, juftlashtirib, boshni oldinga egmasdan bajarish. Tayoqchani iloji boricha uzoqroqqa qo'yish. Dumalatganda yuqoriga qarash, qo'llar to'g'ri, oyoqlar juftlangan. Sur'at – o'rtacha.

10. Cho'ziluv- chanlik uchun	D.h. – o'tirish, tayoqcha yuqorida. 1 – o'ng oyoqni bukish, tayoqcha pastda oyoq ostida; 2-3 – tayoqchaga tiralib, oyoqni yozib yuqoriga; 4 – d.h.; 5-8 – boshqa oyoq bilan.	6-8 marta	Ko'rsatib berish va tushuntirish. Oyoqni bukkanda orqani bukmasdan, boshni egmasdan bajarish. Oyoqni iloji boricha yuqoriga yuqoriga yozish, ikkinchisi to'g'ri. Sur'at – o'rtacha.
------------------------------	--	-----------	---

11. Siltanish lar	D.h. – tayoqcha yuqorida. 1 – o'ng oyoqni siltab, tayoqcha yelkada; 2-d.h.; 3 – o'ng oyoqni orqaga siltab, tayoqcha ko'krak oldida; 4-d.h.; 5-8 – boshqasi bilan.	6-8 марта 15 s	Ko'rsatib berish. Siltashlarni cho'qqaymasdan, bukilmasdan bajarish. Oyoqni to'g'ri siltash, ikkinchisi yerdan uzilmasligi kerak. Sur'at – o'rtacha.
12. Sakrashlar	D.h. – tayoqcha oldinda polda. 1 – tayoqcha ustidan sakrab o'tib, qo'llar yelkada; 2 – tayoqcha ustidan orqaga sakrab o'tib, qo'llar yuqorida; 3 – 1; 4 – tayoqcha ustidan sakrab o'tib d.h. Joyida yurish.	8-10 марта	Bo'limilar bo'yicha. Balandroq sakrash. Koordinatsiya tayyorgarligi sust bo'lqanda shuning o'zini qo'llarda tayoqcha bilan bajarish. Sur'at – tez.
13. Nafas rost-lash uchun	D.h. – oyoqlar kerilgan, tayoqcha yuqorida. 1 – o'ng oyoqqa yarim cho'qqayish, chap oyoq yonda oyoq uchida, tayoqcha o'ngda; 2 – oyoqlar kerilgan, tayoqcha pastda; 3 – 1; 4 – d.h.; 5-8 – boshqa tomonga.	4-6 марта	Ko'rsatib tushuntirib berish. Egilmasdan tayoqcha bilan yonga cho'zilish, qo'llarni bukmasdan, tayoqchaga qarash. Sur'at – sekin.
1. Tortilish uchun	Ritmik gimnastika majmuasi, I. D.h. – A.t. 1 – yarim cho'qqayib, qo'llar yonda; 2 – qo'llar yuqorida; 3 – oyoq uchida turish; 4 – qo'llar yuqorida; 5 – oyoq uchida turish; 6 – 3; 7-8 – qo'llar tashqaridan yoysimon pastga, d.h.; 8 – qo'llar belda.	8 марта	Uzluksiz usulda, frontal. Ko'rsatib berish. Sur'at – o'rtacha. Yarim cho'qqayishda egilmasdan, qorinni tortib bajarish. Oyoq uchida yuqoriga cho'zilish. 8 марта bajargandan keyin 8 hisobda d.h. ni o'zgartirish.

74

2. Oyoq mu-shaklari uchun	II. D.h. – qo'llar belda. 1 – dumaloq yarim cho'qqayish, yelkalar (tirsaklar) oldinga; 2 – o'ng oyoqni oldinga kerib turish, qo'llar yonda; 3 – o'ng oyoqni juftlashtirib, dumaloq yarim cho'qqayish, qo'llar belda, yelkalar oldinda; 4 – chap oyoqni oldinga kerib turish, qo'llar yonda;	8 марта	Dumaloq yarim cho'qqayishda qorinni tortish, bosh oldinga egilgan. Oyoqlarni kerib turganda kuraklarni bir-biriga yaqinlashtirish; qo'llar to'g'ri, oldinga-yuqoriga qarash.
	III. D.h. – oyoqlar kerilgan, qo'llar yonda. 1 – o'ng oyoqni juftlashtirib, tayanib cho'qqayib o'tirish; 2 – qo'llar bosh orqasida; 3 – o'ngga tashlanish, qo'llar belda; 4 – qo'llar belda; 5 – tayanib cho'qqayib o'tirish; 6 – qo'llar bosh orqasida; 7 – chapga tashlanish, qo'llar belda; 8 – qo'llar yonda;	8 марта	Tayanib cho'qqayishda tana og'irligini qo'lga o'tkazish. To'g'ri turishda to'liq yozilib, kuraklarni bir-biriga yaqinlash-tirish. Tashlanishda bukilmasdan, qorinni tortib bajarish.
3. Qo'l mu-shaklari uchun	IV. D.h. – 1 – 2 – yarim cho'qqayib, yuqorida qarsak; 3 – 4 – yarim cho'qqayib, yuqorida qarsak.	8 марта	Qo'llarni taranglashtirib aylantirish, qarsakda qo'llar to'g'ri. Yarim cho'qqayishni egilmasdan bajarish.
	V. D.h. – 1 – qo'llar yuqorida; 2 – kerishib egilish, qo'llar yonda; 3 – egilish; 4 – sapchib egilish, qo'llar orqaga.	8 марта	Kerishib egilishda kuraklar bir-biriga yaqin, yuqoriga qarash. Egilganda polga tekkazish, qo'llarni orqaga aniq harakatlantirish.

75

	<p>VI. D.h. – A.t.</p> <p>1 – yarim cho'qqayib, gavdani chapga burib, qo'llar yonda;</p> <p>2 – qo'llar ko'krak oldida;</p> <p>3 – orqaga yarim egilib, qo'llar yonda kaftlar yuqoriga qaragan;</p> <p>4 – qo'llar ko'krak oldida;</p> <p>5-8 – boshqa tomonga.</p>	8 марта	Burilganda egilmasdan, qo'llar to'g'ri. Orqaga egilganda orqaga qarash.
5. Barcha mushak guruhlari uchun	<p>VII. D.h.</p> <p>1 – o'ng oyojni keng kerib turib, orqaga kerishib egilish, qo'llar yonda;</p> <p>2 – o'ng oyoqda tayanib, cho'qqayib o'tirish;</p> <p>3 – 1;</p> <p>4 – o'ng oyojni justlashtirib, qo'llar yuqorida;</p> <p>5-8 – boshqa tomonga;</p> <p>9 – tayanib cho'qqayib o'tirish.</p>	8 марта	Oyoqlar va qo'llar to'g'ri. Kuraklar bir-biriga yaqin. Tayanib cho'qqayib o'tirishda kaftlar polga to'liq tekkан. Qo'llarni yuqoriga ko'tarib turishda yuqoriga tortilish, orqa to'g'ri. Oxirgi marta bajarib 8 hisobda d.h. ni o'zgartirish.
	<p>VIII. D.h.</p> <p>1 – tayanib yotish;</p> <p>2 – qo'llarni bukib, tayanib yotish;</p> <p>3 – tayanib yotish (yotib qo'llar yuqorida);</p> <p>4 – tayanib cho'qqayib o'tirish (o'ngga burilib, orga bilan yotib, qo'llar yuqorida).</p>	8 марта	Tayanib yotishda qorinni tortish, orqa to'g'ri. Oxirgi marta bajarib, 3-4 hisobda d.h. ni o'zgartirish.
6. Qorin pressi mushaklari uchun	<p>IX.</p> <p>1 – oyoqlarni bukib o'tirish, qo'llar pastda;</p> <p>2 – orqa bilan yotib, qo'llar yuqorida;</p> <p>3 – oyoqlar oldinda;</p> <p>4 – 2,</p> <p>5 – dumalab o'tirish.</p>	16 марта	Qo'llar tekis, orqa to'g'ri, yoiganda to'liq yozilish. Oxirgi marta bajarib, 3-4 hisobda d.h. ni o'zgartirish.

76

7. Cho'ziluv-chanilik uchun	<p>X.</p> <p>1 – egilish;</p> <p>2 – oyoqlarni kerib o'tirib, qo'llar bosqasida;</p> <p>3 – egilib, qo'llar yuqorida;</p> <p>4 – oyoqlarni birlashtirib o'tirib, qo'llar yonda (orqaga tayanib o'tirish) bilaklarga tayanib.</p>	8 марта	Oyoqlarni bukmasdan egilish. Orqa to'g'ri. Oxirgi marta bajarib, 4-hisobda d.h. ni o'zgartirish.
8. Siltanishlar	<p>XI.</p> <p>1 – o'ng oyojni siltash;</p> <p>2 – orqaga tayanib o'tirib, o'ng oyojni siltash;</p> <p>3 – chap oyojni siltash;</p> <p>4-5 – o'ng tizzada tik turish orqali chap oyoqda tik turib, o'ng oyoq oldinda bukilgan.</p>	8 марта	Siltanishlarni to'g'ri oyoq bilan bajarish, yelkalar tushgan, boshni tik tutish. D.h. ni o'zgartirgan tos-son bo'g'imini to'liq yozib, orqa to'g'ri.
9. Sakrashlar	<p>XII.</p> <p>1 – sakrab oyoqlarni kerib, qo'llar belda;</p> <p>2 – o'ng oyoqda sakrab, chap oyojni oldinga bukish;</p> <p>3 – sakrab, oyoqlar kerilgan;</p> <p>4 – chap oyoqda sakrab, o'ng oyojni oldinga bukish.</p>	8 марта	Balandroq sakrash. Oyoq uchida, tizzalar tashqariga qaragan.
10. Nafas rost-lash uchun	<p>XIII. Joyida yurish.</p> <p>1 – qo'llar yelkada;</p> <p>2 – qo'llar yonda;</p> <p>3 – qo'llar bosqasida;</p> <p>4 – qo'llar yuqorida;</p> <p>5 – qo'llar bosqasida;</p> <p>6 – qo'llar yonda;</p> <p>7 – qo'llar yelkada;</p> <p>8 – qo'llar pastda.</p>	8 марта	Qo'llar harakatlarini aniq bajarish 1-4 hisobda nafas olish. 5-8-hisobda nafas chiqarish.

## Maktabda gymnastika darsining tayyorlov qismi konsepti

Vazifa:

1. Ta'lim:
  - 1) joyida burilishlarni takomillashtirish;
  - 2) juftlama qadamni o'rgatish.
2. Sog'lomlashtiruvchi:
  - 1) to'g'ri qad-qomatni shakllantirish;
  - 2) shug'ullanuvchilar organizmimi darsning asosiy qismi vazifasini hal qilish uchun tayzorlash.
3. Tarbiyaviy:
  - 1) harakat madaniyati va jamoatchilik hissini tarbiyalash.

O'tkaziladigan joy: O'ZDITSU gymnastika zali. Sana: 20.03.10. Vaqt: 11:40.

O'lkazdi:

Konspektini tekshirdi: imzo

Dars qismi	Vazifalar	Mazmuni	Me'yori	TUK
1. Shug'ullanuv-chilami tashkil-lashtirish	1. Saflanish. 2. Navbatchi reporti. 3. Dars vazifalarini e'lon qilish. 4. Burilishlar: o'ngga; chapga; ortga.	1. Saflanish. 2. Navbatchi reporti. 3. Dars vazifalarini e'lon qilish. 4. Burilishlar: o'ngga; chapga; ortga.	15 s 15 s 15 s 2 marta 2 marta 2 marta	Yuqorigi o'ng burchakda. Qatnashchilarning sport kiyimini tekshirish. Ta'lim vazifalarini aytib o'tish.  Saf usullarini to'g'ri bajarishga erishish. Burilishlarni bajarganda qo'llar yon tomonga yopishgan, qorinni tortish.
2. Joyida yurish-larni takomil-lashtirish.	5. Sakrab burilishlar: o'ngga, chapga. 6. Aylanib yurish: a) yurish: - qo'llar yonda; - qo'llar yuqorida; - qo'llar bosh orqasida; - qo'llar orqada; b) oyoq uchida yurish, qo'llar belda; c) cho'qqayib yurish, qo'llar bosh orqasida.	5. Sakrab burilishlar: o'ngga, chapga. 6. Aylanib yurish: a) yurish: - qo'llar yonda; - qo'llar yuqorida; - qo'llar bosh orqasida; - qo'llar orqada; b) oyoq uchida yurish, qo'llar belda; c) cho'qqayib yurish, qo'llar bosh orqasida.	2 marta-dan 4 kr 4 kr 4 kr 4 kr 2 kr 2 kr	Boshni egmasdan yurish. Safda muvozanatni saqlash. Buyruq: "Chapga aylanib qadam bos!", "Qo'llar yonda".  Oyoq uchida hisob bo'yicha. Oyoq uchida yurib, yuqoriga tortilish, oyoqlarni bukmasdan yurish. "Qisqa qadam!".  Cho'qqayib yurishda egilmasdan, oldinga qarab yurish.
3. To'g'ri qaddi-qomatni shakllantirish	7. Ko'rsatib berish va tushuntirish.	7. Ko'rsatib berish va tushuntirish.	30 s	Oraliq masofa 2 qadam, d.h., III holat qo'llar belda; "1" – o'ng oyoq yonda oyoq uchida; "2" – og'irlilik markazini o'ng oyoqqa o'tkazib, chap oyoq yonda oyoq uchida; "3-4" – chap oyoqni d.h. ga qo'yish. Shuning o'zini 2 hisobda egilmasdan, burilmasdan bajarish.

Tayyorlov qismi 10 deng

	b) Yonga juftlama qadamni o'rgatish.  5. Shug'ullanuvchilar organizmini asosiy qism vazifasini hal qilishga tayyorlash.  6. Harakat maddaniyati va jamoatchilikni his qilishni tarbiyalash.	8. Qismilarga bo'lib yonga juftlama qadam.  9. Hisob bo'yicha yonga juftlama qadam: o'ngga, chapga.  10. Aylanib yurish, yugurish, sakrab yurish, qo'llar belda.  11. Doira bo'lib saflanish.  <b>12. Doirada URM majmuasi</b>  1. D.h. – qo'llardan ushlab turish. 1-2 – o'ng oyoqda bir qadam, chap oyoq orqada oyoq uchida, qo'llar yuqorida; 3-4 – o'ng oyoqni juftlashtirib, d.h. 5-6 – chap oyoqda bir qadam, o'ng oyoq orqada oyoq uchida, qo'llar yuqorida; 7-8 – chap oyoqni juftlashtirib, d.h.  2. D.h. – chap yon bilan turib, qo'lliar oldinda turgan shug'ullanuvchining yelkasida. 1 – chapga tashlanish; 2 – d.h.	30 s  30 s  45 s 15 s  6-8 marta  6-8 marta	"Qadam bos!", "Yuguring!". 2 oyoqlab sakraganda egilmasdan, balandroq sakrash. Buyruq: "Doira bo'lib yuring! To'xta!".  Tashkil qilish usuli: frontal. Bajarish usuli: bo'lib o'tish.  Bo'limlar bo'yicha – orqadagi oyoq to'g'ri, yuqoriga tortilish, boshni tik tutib, bukilmasdan bajarish. Sur'at – sekin.
--	---	---	--	--

80

	3 – yarim cho'qqayib qo'llar yuqorida; 4 – d.h.; 5 – o'ngga tashlanish; 6 – d.h.; 7 – yarim cho'qqayib qo'llar yonda; 8 – d.h.		karaklar bir-biriga yaqin, boshni tik tutib bajarish. Sur'at – o'rtacha.
	3. D.h. – zinch doirada qo'llardan ushlab turish. 1 – qo'llar yelkada; 2 – qo'llar yuqorida; 3 – qo'llar oldinda; 4 – d.h.; 5-7 – 3 marta qo'llarni orqaga prujinasimon harakatlantirish; 8 – d.h.	6-8 marta	Ko'rsatib berish. Qo'llarni orqaga harakatlantirganda to'g'ri tutib, egilmasdan oldinga qarab bajarish. Sur'at – o'rtacha.
	4. D.h. – oyoqlar kerilgan, doiraga orqa bilan turish, qo'llar yondagi shug'ullanuvchining yelkasida. 1 – orqaga yarim egilib, qo'llar yuqorida; 2 – d.h.; 3 – kerishib egilish; 4 – d.h. 5. D.h. – oyoqlar kerilgan, doiraga o'ng yon bilan turib, qo'llar oldinda turgan shug'ullanuvchining yelkasida.	8-10 marta	Tasavvur hosil qilish usuli: bo'limlar bo'yicha. Egilganda orqaga qarash, oyoqlarni bukmasdan, kerishib egilishda oldinga qarab bajarish. Sur'at – sekin.

81

	<p>1 – o'ngga egilish, chap qo'l yuqorida;      2 – d.h.;      3 – chapga egilish, o'ng qo'l yuqorida;      4 – d.h.;      6. D.h. – qo'llarni yuqoridan ushlab turish.      1 – egilish;      2 – cho'qqayib, qo'llar oldinda;      3 – qo'llar yuqorida;      4 – d.h.</p>	8-10 marta	Ko'rsatib berish. Egilganda polga tegishga harakat qilish, oyoqlar to'g'ri, cho'qqayib o'tirganda qo'llar polga parallel, boshni tik tutib, orqa to'g'ri. Sur'at – o'rtacha.
	<p>7. D. h. – oyoqlarni kerib, doiraga chap tomon bilan o'tirish. qo'llar yonda.      1 – oyoqlarni bukib o'tirib, qo'llar oldinda o'tirgan shug'ullanuvchining yelkasida;      2 – d.h.;      3 – chapga egilish, qo'llar bosh orqasida;      4 – d.h.;      5 – oyoqlarni bukib o'tirib, qo'llar oldinda o'tirgan shug'ullanuvchining yelkasida;      6 – d.h.      7 – o'ngga egilish, qo'llar bosh orqasida;      8 – d.h.</p>	6-8 marta	Tasavvur hosil qilish usuli: bo'limlar bo'yicha. "1" – oyoqlarni ko'krak oldiga tortib, qo'llar bilan oldinga intilish. Sur'at – sekin.

82

